

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**JUMANIYOZOVA SHAHLO MAXSUDOVNA**

**O`zbek tili va adabiyoti kafedrasining  
5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bo`yicha  
(shifri va ta`lim yo`nalishi nomi)**

**bakalavr darajasini olish uchun**

# ***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

**Mavzu: Izzat Sulton dramaturgiyasi (g`oyaviylik va mahorat)**

**Ilmiy rahbar: f.f.n. S. Kurbanova**

**Urganch – 2016**

## Reja:

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I BOB. IZZAT SULTON DRAMALARIDA DAVR G'UYALARI VA QAHRAMON MASALASI</b>	
1.1. Dramaturg asarlarida ijtimoiy-siyosiy voqelik tasviri.....	6
1.2. “Yangi odamlar” dramasiidagi obrazlar talqini .....	19
<b>II BOB. IZZAT SULTON DRAMATURGIYASIDA TASVIR VA TALQIN</b>	
2.1. Qahramon va konflikt masalasi .....	33
2.2. Izzat Sulton dramalarida psixologik tasvir va ma`naviy-axloqiy muammolar ifodasi .....	43
<b>Xulosa</b> .....	58
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati</b> .....	61

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi adabiyotshunoslik har bir tadqiqotchidan o‘tkir zehn, sinchkovlik, ayniqsa, yuzaga chiqayotgan ilmiy kashfiyot va yangiliklardan xabardor bo‘lishni, umuman, keng qamrovli ish olib borishni talab etadi. Bu esa milliy adabiyotimizning boy ma‘naviy xazinasini chuqur o‘rganishimiz, uni anglashimiz uchun xizmat qiladi. Prezidentimiz I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida ta‘kidlaganlaridek, “Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot bu yangicha fikrlash va dunyoqarashga turtki beradi, ma‘naviyatning shakllanishiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi”<sup>1</sup>. Shuning barobarida, ilmiy, ijodiy izlanishlarning samarasi o‘laroq kashf etilgan har bir yangi fikr, tadqiqotchilarning adabiy masalalar yuzasidan berayotgan yangicha xulosalari adabiyotshunoslik bazasining to‘ldirilib, mukammallashtirilib borilishiga turtki bo‘ladi. Ana shu jihatdan olib qaraganda, mazkur bitiruv-malakaviy ish uchun tanlangan “Izzat Sulton dramaturgiyasi (g‘oyaviylik va mahorat)” mavzusining o‘rganilishi adabiyotimizning yana bir muhim masalasining tadqiq etilayotganini ko‘rsatadi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** XX asrning 60-90-yillarida dramaturg ijodi, uning xarakter yaratish mahorati badiiyat, sujet va kompozitsiya singari masalalar negizida o‘rganilib, qator tadqiqot va ilmiy maqolalar yaratilgan. Xususan, Izzat Sulton hayoti va ijodi, dramaturgiyasining o‘ziga xos xususiyatlari adabiyotshunos olimlar T.Sobirov<sup>2</sup>, B.G‘ulomov<sup>3</sup>, B.Jalilov<sup>4</sup>, O‘.Shokirovlar<sup>5</sup> tomonidan chuqur o‘rganilgan. Adabiyotshunos olim O‘.Shokirov Izzat Sultonning

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 41.

<sup>2</sup> Sobirov T. Davr va drama. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1975.

<sup>3</sup> Gulomov B. Saфдошлар va izdoшлар. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.

<sup>4</sup> Jalilov B. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Toshkent: Fan, 1984.

<sup>5</sup> Шокиров Ў. Иzzат Султон – драматург. – Toshkent: Fan, 1981.

ilmiy va badiiy ijodini o`zaro bog`liqlikda o`rganib, nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Bundan tashqari olim ana shu tadqiqotlarga tayanib Izzat Sultonning ijodiy portretini ham yaratgan.

Izzat Sultonning so`nggi yillar ijodi, xususan, XX asrning 90-yillarida yaratilgan dramalarining badiiyati, mavzu ko`lami, muammolar doirasi milliy istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan kam o`rganilgan.

O`zbek adabiyotshunosligida har bir ijodkor adabiy merosini tadqiq etishda bugungi adabiy jarayonning badiiy-estetik mezonlaridan kelib chiqib ish ko`rish, yozuvchi-dramaturglarning uslubi va ijodiy o`ziga xosligini ularning shaxsiyati, yashagan davri bilan bog`lab o`rganish ko`zga tashlanadi. Shu jihatdan qaraganda Izzat Sulton adabiy merosining o`ziga xos qirralarini, badiiy mahoratini o`rganish masalasi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Ishning asosiy maqsadi Izzat Sulton dramaturgiyasining o`ziga xos xususiyatlarini, xususan, adib dramalarida ijtimoiy, ma`naviy-axloqiy muammolar talqinini, qahramon masalasini, badiiy tasvir yaratish mahoratini ko`rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari.** Mazkur ish quyidagi vazifalarni hal qilishni ko`zda tutgan:

- Izzat Sulton asarlarida ijtimoiy-siyosiy voqelik talqinini tahlil etish;
- dramaturgning obraz va tasvir yaratishdagi badiiy mahoratini o`rganish;
- dramalardagi qahramon va konflikt masalasini tadqiq etish;
- Izzat Sulton dramalarida psixologik tasvir va ma`naviy-axloqiy muammolar talqinini tahlil etish.

**Tadqiqot obyekti.** Bitiruv-malakaviy ishimizga Izzat Sultonning bir qator dramalari asosiy manba qilib olindi. Shuningdek, ish jarayonida D.Quronov, X.Umurov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev kabi olimlarning nazariy qarashlariga asoslanildi.

**Tadqiqot predmeti.** Izzat Sulton dramalaridagi psixologik tasvir va ma`naviy-axloqiy muammolar talqini, dramaturgning obraz va tasvir yaratishdagi

badiiy mahoratining o'ziga xos jihatlarini ochib berish tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Bitiruv-malakaviy ishda ilmiy bilishning analiz, sintez, qiyosiy va muammoli tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Izzat Sulton adabiy-estetik qarashlari bilan mustaqillik davri dramaturgiyasidagi badiiy tafakkur evrilishlari rivojini o'zaro uyg'unlikda kuzatish, dramaturgning obraz va tasvir yaratishdagi badiiy mahorati kabi masalalarning o'rganilishi ishning ilmiy yangiligini bildiradi.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv-malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 61 sahifadan iborat.

# I BOB. IZZAT SULTON DRAMALARIDA DAVR G'OYALARI VA QAHRAMON MASALASI

## 1.1. Dramaturg asarlarida ijtimoiy-siyosiy voqelik tasviri

Badiiy asarlarda davr ruhi, zamon pafosi xarakterlar tabiati, psixologik jarayonlarga, qahramonlarning fe'l-atvoriga singdirilgan holda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichidagi davrning murakkabligi va sir-sinoatlari badiiy obrazlar harakati orqali ifoda etiladi. Ushbu qonuniyatni mustaqillik davri dramaturgiyasida, xususan, Izzat Sulton pyesalarida, umuman, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham kuzatish mumkin.

Zamon ruhi, insonning ma'naviy-intellektual olami ijod ahlini hamisha o'ylantirib kelgan. Adabiyotshunos Z.G.Osmanova zamon va inson konsepsiyasini o'rganish, ilmiy-nazariy umumlashtirish borasida adabiyot oldida turgan muhim vazifalarni qayd etib, quyidagilarni yozadi: "Insonning shaxs sifatida shakllanish jarayonidagi ma'naviy dunyosini nazariy umumlashtirishga hamisha ehtiyoj sezib kelinayotir. Har bir ijtimoiy voqelikning tarixiy taraqqiyot bosqichlaridagi inson shaxsining murakkabliklari, qarama-qarshiliklari, yaxlitligi va yanada muhimi, oxirigacha aslo yetib bo'lmas jihatlarini tushinish, tushuntirish oldida ilm ahli burchli, qarzdor. Zamon va inson masalasining barcha adabiy turlar va janrlardagi, ulkan so'z san'atkorlari ijodidagi ijtimoiy-falsafiy, badiiy talqin xususiyatlarini o'rganish, yoritish eng ko'p e'tiborni tortsa-da, tugal yechimini topmagan muammodir"<sup>1</sup>.

Muammoning bu taxlit ko'ndalang qo'yilishi bejiz emas. Negaki, badiiy asarning barcha komponentlari, ichki tarkibi inson konsepsiyasi mehvari atrofida mujassamlashadi. Badiiy asar obrazlari, konflikt ko'rinishlari, sujet rivoji va kompozitsiyasi insonni badiiy-estetik, falsafiy idrok etish, shuningdek, badiiy ifoda etish tamoyillarining takomilidan suv ichadi. Bir so'z bilan aytganda, badiiy asarlarning barcha unsurlari inson konsepsiyasidan bahra oladi.

---

<sup>1</sup>Османова З.Г. Художественная концепция личности в литературах Востока. – М., 1975.

Hayot hamisha o'zgarish, yangilanish jarayonida. Tabiat fasllaridagi evrilish inson shaxsi, ma'naviy dunyosi, intellektual holati uchun ham xos. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hayotdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar odamlar ma'naviyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shu boisdan adiblar o'zlarining mustaqillik yillarida yaratgan asarlariga o'qituvchi yoki shifokor, muhandis yoki chorvador, dehqon yoki ishchi obrazlarini olib kirishga intilishar ekan, ularning ma'naviyati, ruhiy olamiga, intellektual saviyasi bilan birga tadbirkorlik xususiyatlariga ham asosiy e'tiborlarini qaratishmoqda. Dramaturg Izzat Sultonning "Yangi odamlar" dramasi ana shunday izlanishlar samarasidir.

Asar janrini adibning o'zi "axloqiy-psixologik drama", deb belgilaydi. Shundan ham bilish mumkinki, hayot materialini badiiy-estetik idrok va ifoda etish xususiyatlari asar janrini ham belgilab berar ekan. Ikkinchidan, bugungi adabiy jarayonda adabiy janrlar o'rtasida diffuziyalanish hodisasi nihoyatda kuchli. Ushbu hodisa adabiy janrlar taraqqiyotining keyingi yillarga xos bo'lgan yetakchi tamoyillaridan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda. She'riyatga xos lirik kechinmalar va ko'tarinkilik, epik asarlarga xos holat va xatti-harakatlar vazminligi dramaning turfa janr ko'rinishlariga singib borayotir. Bu bilan drama o'zining adabiy tur sifatidagi salohiyatini yoqotayotgani yo'q. Aksincha, o'ziga yondosh adabiy tur(epos, lirika)larga xos xususiyatlarni o'z tabiatiga singdirgan holda boyib bormoqda.

"Yangi odamlar" dramasida tomoshaviylikni ta'minlovchi xatti-harakatlar tig'izligidan ko'ra sezimlilik ko'proq ustuvor. Ya'ni, unda qahramonlarning his-kechinmalarini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, mohiyatan dramatik xarakterga ega bo'lgan voqealar, harakatlar tuyg'u va kechinmalar bilan uyg'un holda aks ettiriladi. Dramaturgning diqqat-e'tiborini tortgan qahramonlar harakatini tuyg'ular, kechinmalar takomili boshqaradi. Shu ma'noda, "Yangi odamlar" dramasi biz o'qib, ko'rib o'rgangan, odatlanib qolgan an'anaviy sahna asarlaridan biroz farq qiladi. Unda epik asarlarga xos sujet oqimi, mulohazakorlik, lirikaga xos kechinmalar talqini yetakchilik qiladi. Bular – asar

qahramonlarining ruhiy olamini ochishdagi badiiy usullar tizimi. Asarda muhabbat masalasiga munosabat orqali qahramonlarning xarakteri ochib beriladi.

“Yangi odamlar” dramasida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri – tadbirkorlarning xarakter xususiyatlari, ularning ruhiy dunyosini ochish dramaturgning diqqat-markazida turadi. Adib ushbu asarida ham o`z ijodiy prinsiplariga sodiq qolgan. Xususan, xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda bo`lsin, davrning muhim ma`naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari Izzat Sultonning barcha asarlarida bo`y ko`rsatib turadi. Izzat Sulton “Tarix va zamonaviylik” mavzusiga bag`ishlangan suhbatlaridan birida shunday yozadi: “Tarix hamisha zamon uchun xizmat qiladi. Asar tarixiy mavzudami, zamonaviy mavzudami, bari bir, unda zamonaga zarur gap aytilishi, zamonaning ma`naviy ehtiyojlariga javob berilishi kerak”<sup>1</sup>.

Yoki “Tonglar – yorug`lik enagasi” nomli suhbatda Izzat Sultonning bugungi kunning uch masalasiga diqqat qaratganining guvohi bo`lamiz. Hamma zamonlarda va har qanday jamiyatda Inson, Iymon, Mulk – muqaddas, degan g`oyani ilgari suradi adib. Qayerdagi inson xor bo`lsa, o`sha joyda taraqqiyot so`nadi. Bosh mezon – bu inson. Hozir jamiyatimiz taraqqiyotida Inson, Iymon, Mulk – muqaddas bo`ldi, degan narsaga biz butunlay ko`nikkanimizcha yo`q. Sho`rolar davrida mulkka nisbatan hurmat tuyg`usi, mulkchilik madaniyati yo`q bo`lib ketdi. Shuni biz tiklashimiz lozim. Mulkdorlikka munosabatni shakllantirishimiz kerak<sup>2</sup>, – deydi dramaturg.

Ko`rinadiki, nafaqat kechmishimizda, bugungu kunda ham o`z mavqei va nufuzini yo`qotmay kelayotgan ma`naviy qadriyatlarga zamona talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish, baholash, fikr yuritish Izzat Sulton ijodining bosh mezonidir. “Umuman, yaxshimi-yomonmi mening bir odatim bor: qulog`im o`tmishdan kelayotgan sadodan faqat bugunga kerak bo`ladigan narsalarnigina

---

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Tarix va zamonaviylik // Guliston, 1981. – № 1. – B. 17.

<sup>2</sup> Usha muallif. Tonglar – yorug`lik enagasi // Guliston, 1999. – № 5. – B. 17.



eshitadi”<sup>1</sup>, – deydi Izzat Sulton. Adib ijodiy prinsiplarining bu taxlit shakllanishiga sabab bo`lgan omillar sirasiga nimalar kiradi?

Bolalik chog`laridan o`zining ma`naviy tarbiyasiga ta`sir ko`rsatgan hayotiy hodisalar va turmush kechinmalari xususida to`xtalar ekan, dramaturg shunday yozadi: “Men Beshyog`ochdagi Almaiy nomli tajriba-ish maktabida o`rta ma`lumotni olganman. Maktabimizda Lev Tolstoyning “Agar men o`zimni o`ylamasam, kim meni o`ylaydi? Agar faqatgina o`zimni o`ylasam, mening nima keragim bor?” degan so`zlari hikmat qilib yozib qo`yilgan edi. Men ana shu ruhda, o`zimni ham, jamiyat oldidagi burchimni ham unutmaslik ruhida tarbiyalanganman. O`zimni doimo, shu jumladan, hozir ham jamiyatning bir zarrasi deb bilaman”<sup>2</sup>.

Ko`rinadiki, inson – benazir ma`naviy-intellektual qadriyat. Shaxsning ruhiy hamda aqliy tarbiyasi masalasi Izzat Sulton asarlarining mag`zini tashkil etadi. Shaxsning ma`naviy-axloqiy madaniyati masalasi adib dramaturgiyasida, xususan, “Alisher Navoiy”, “Imon” asarlaridan tortib, “Yangi odamlar”, “Oydin kecha asirligida” dramalarida ham o`z aksini topadi. Izzat Sulton o`z dramalarining barchasida ushbu muammoning turfa qirralarini badiiy tadqiq etishga, zamonaning ma`naviy-intellektual ehtiyojlariga javob izlashga intiladi.

Ko`ngilni ma`rifatli qilish Izzat Sulton dramalaridan tortib ilmiy tadqiqotlarigacha balqib turadigan masaladir. Adib davrning ma`naviy saviyasiga, ehtiyojlariga javob berish masalasini birinchi o`ringa qo`yadi. Mazkur talab va ehtiyojlar adabiyot va san`at oldidagi eng dolzarb vazifalar sirasidan, deya ta`kidlanar ekan, o`zidan va o`z ijodidan ham ana shu narsani qat`iy talab etadi.

Bizga ma`lumki, umumfalsafiy xarakter kasb etadigan shakl va mazmun birligi masalasi har doim ham dolzarb bo`lgan. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ma`lumotlarni uchratishimiz mumkin: “Badiiy asarda shakl va

---

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Дам бу дамдир, дам бу дамдир, дам бу дам... // Соғлом авлод, 1996. – № 1. – Б. 23.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

mazmun o'zaro dialektik aloqada bo'lib, ular bir-birini taqozo qiladi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-biriga o'tadi. Badiiy shakl va badiiy mazmun munosabatida ham mazmun yetakchiroq mavqega ega bo'lib, u shaklni hosil qilishda juda faoldir. San'atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog'i, bo'lg'usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi"<sup>1</sup>. Bu fikrlardan ma'lumki, mazmun shaklni belgilab berar ekan. San'atkor asarlaridagi zamon va qahramon masalasi xalq hayoti va axloqi, millat ma'naviy madaniyati bilan uzviy bog'liqlikda zohir bo'layotganligi boisidan ham ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni va ahamiyati juda sezilarlidir.

Agar e'tibor bersak, milliy istiqlol sharoitida erk-ozodlik ideallarining odamlar tabiatidagi, faoliyatidagi, millat ma'naviyatidagi shakllanish jarayonlari adabiyot va san'at ahlining diqqat-e'tiborini o'ziga ko'proq jalb etmoqda. Bu narsa, tabiiyki, milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy asoslarini mustahkamlash ishiga xizmat qiladi. Ana shu hayotiy voqelikning talab va ehtiyojlari Izzat Sulton dramalarida qay taxlitda o'z badiiy yechimini topganligini adib dramalarining obrazlar tizimiga nazar tashlash orqali bayon etmoqchimiz.

Izzat Sulton dramalarida zamon va qahramon masalasi, avvalo, mazkur muammoning badiiy talqini orqali oydinlik kasb etadi. Xususan, "Yangi odamlar", "Oydin kecha asirligida" dramalarida ishq-muhabbat mavzusi qalamga olinadi. Muhabbat kutilmaganda ko'ngilga kirib keladi. Bizning inon-ixtiyorimizga qaramasdan, yuragimizdan joy oladi. Ruhiyatimizni o'zgartirib, taqdirimizda kutilmagan, aqlimiz bovar qilmas o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

"Yangi odamlar" dramasida sevgi-muhabbat erkinligi shaxs erki va uning ma'naviy hurriyati uchun olib borilgan kurash yo'nalishida badiiy tadqiq etiladi. Birinchi pardaning birinchi ko'rinishidagi ilk holatdayoq ana shu ruhiy kechinmalar ifodasi yaqqol ko'zga tashlanadi: "Aslida ikki kishiga mo'ljallangan "Tohir va Zuhra" filmidagi mashhur "Otmagay tong" qo'shig'i yosh qizning yakka ijrosida jaranglaydi. Uning ovozidan allaqanday g'ariblik va xazinlik ruhi seziladi. Unda kutish va sog'inish hissi ustun. Qo'shiq tamom bo'lgach, bir daqiqadan

---

<sup>1</sup> Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 87.

so`ng eshikning narigi tomonidan sharpa eshitaladi. Kimdir eshikni ochishga urinmoqda. Azamat o`zini panaga oladi. Ichkaridan Dilbar chiqadi. Qiz hoynahoy eshik oldini supurish uchun chiqqan. Dilbar ko`chaga suv sepib, supura boshlarkan, Azamat qizga yaqin kelib, uni kuzatishda davom etadi. Dilbarni kuzatgan sari yigitning zavqi orta boradi. Azamat qizning go`zalligidan hayratda uzoq jim qoladi. Uning quvonchi ichiga sig`maydi”<sup>1</sup>.

Dramaning ostona tasviri bilan boshlanishi bejiz emas. U ramziy ma`no kasb etgan. Xususan, barcha ezgu amallar ostonadan boshlanadi, shu jumladan, Vatan, oila, baxt ham. Tuyg`ular ostona bo`sag`asida kurtak yozyapti. Dilbar saharlab uy bo`sag`asiga suv sepib supuryapti, ostonaning pokizaligiga alohida ahamiyat beryapti.

Agar e`tibor bersak, asar Dilbar bilan Azamatning ostonadagi tanishuvi, har ikki qalbdagi ishq-muhabbat tuyg`ularining kurtak yozishi bilan boshlanadi. Ostona – ramziy ma`noga ega. U marhum akademik Yo`ldosh Komilov bog`-uyining ostonasigina emas, ko`ngil bog`ining bo`sag`asi hamdir.

Ma`lumki, muhabbat mavzusi adabiyotning azaliy va abadiy mavzularidan hisoblanadi. “Yangi odamlar” dramasi muhabbat talqini ikki jihatdan e`tiborli. Birinchidan, muhabbat masalasining badiiy talqini orqali Izzat Sultonning shaxs va san`atkor sifatidagi nuqtai nazarini ayonlashadi. Ikkinchidan, adibning jamiyat asoslariga nisbatan yuksak insonparvarlik munosabatidan ham voqif bo`lamiz. Xususan, muhabbat bu nafaqat ikki sevishgan yoshlar ko`ngil mayllarining tantanasi, yana shu bilan barobar, yashab, faoliyat ko`rsatayotgan jamiyatning ma`nan sog`lomligidan ham dalolat beradi. Muhabbatning tantanasi yashash uchun kurashning muhim bir qismidir. Ishq-muhabbat tuyg`ularining go`zalligi, bu – adolatning ham go`zalligidir. Hayotda qaror topayotgan go`zallikning yorug`likka aylanishi, tantanasi, demakdir.

Har ikki jihat adib estetikasidagi zamon va qahramon konsepsiyasini oziqlantirib kelayotgan o`zak mohiyatga kelib bog`lanadi. Bu har bir ijtimoiy-

---

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Yangi odamlar // Eshlik, 2003. – № 2. – B. 14.

tarixiy taraqqiyot bosqichida o`ziga xos ma`nolari bilan zohir bo`ladigan xalq axloqidir. “Xalq hayotida azaliy va badiiy bir omil bor, – deb yozadi adib Izzat Sulton “Aziz ostonada so`z” maqolasida. Bu – xalq axloqi. Ya`ni odil va pok hayot haqida xalq tasavvuri. Bu tasavvurga halol mehnat, ma`rifatga intilish, insonni hurmat qilish va e`zozlash, hamma insonlar va xalqlarni teng ko`rish kabi juda ham aziz tamoyillar kiradi. Adabiyot va san`at ana shu xalq axloqini o`ziga mezon va ideal qilib olsa, qahramonlarning ruhiga, fe`l-atvoriga va ishlariga baho berganda, ana shu axloqni o`lchov qilib olsa, o`zi yaratgan yorqin obrazlar bilan yosh avlodni ana shu axloq ruhida tartib toptirsa, san`atkorlarimiz o`zlari ham to`g`ri yo`lni topib olgan va xalqimizni to`g`ri yo`lga boshlagan bo`lar edilar”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, Izzat Sulton haqli ravishda ta`kidlaganidek, adabiyotdagi yangilik hayotdagi yangilikni payqab olishdan boshlanadi. Hayotning adabiyot taqdiriga ta`sir yo`llari ko`p. Masalan, adabiyot boshi berk ko`chaga kirib olganida hayotning o`zi uni qutqaradi: hayot o`zi unga yangi qahramonlarni hadya etadi. Yozuvchining, adabiyotning vazifasi shu yangi qahramonni vaqtida ko`ra bilish va ko`rsata bilishdan iborat, deydi adib<sup>2</sup>.

Birgina Izzat Sultonning so`nggi izlanishlari misolida kuzatadigan bo`lsak, keyingi yillar dramaturgiyasida hayotga hamnafas bo`lish, xalq orasidan yetishib chiqqan ilg`or dunyoqarashli zamondoshlarni adabiyot qahramoniga aylantirish tamoyili ustuvorlik qiladi. Buning real mahsuli sifatida “Yangi odamlar” pyesasida ko`ringanidek, mustaqillik sharofati bilan mehnatni yangicha yashash tarziga, hayotimiz mazmuniga aylantirayotgan yangi inson – tadbirkorlar obrazini yaratish, yangi davr ruhini istiqloq mafkurasi nuqtai nazaridan turib yoritish Izzat Sultonning bosh estetik tamoyiliga aylanadi.

Keyingi yillarda hayotga, qahramonlarga istiqloq mafkurasi nuqtai nazaridan yondashish, ular ongi va dunyoqarashidagi yangilanishlarni kuzatish, tuyg`u va kechinmalaridagi erkinlik epkinlarini yuzaga chiqarish Izzat Sulton pyesalarida ham badiiy-estetik konsepsiya shaklini oldi. Xususan, mustaqillik sharofati bilan

---

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Aziz ostonada sўz // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990. 21 декабр.

<sup>2</sup> Ўша муаллиф. Тонглар – ёруғлик энагаси // Гулистон, 1999. – № 5. – Б. 17.

turli kasb va soha vakillari (Muzaffar ota, Dilbar, Saidjon, Ozoda, Muattar, Akbar)ning mehnatning yangi shakli va ko`rinishi – tadbirkorlikka bo`lgan munosabatlari (yoqlash yoki rad etish, ikkilanish va h.k.), tadbirkor – yakka shaxsning jamoa psixologiyasiga, ko`pchilikning yangicha dunyoqarashiga ta`siri masalasi, ushbu jarayonda jamoaning yakka shaxs (Azamat, Akbar hamda Dilbar) psixologiyasiga ta`siri natijasida tug`ilgan o`y-kechinmalar, hissiyotlardagi o`zgarishni aks ettirish Izzat Sulton asarlarining o`ziga xosligini belgilovchi bosh omil darajasiga ko`tarildi. Mazkur sifat belgilari Izzat Sulton dramalarini o`tkir publitsistik ruh bilan boyitdi, deyishga asos beradi. Azamat, Saidjon obrazlari hozirgi yoshlarning fikri va ongidagi o`zgarishlarni ko`p jihatdan haqqoniy aks ettiradi. Bu xildagi tadbirkor yoshlar obrazi yaratilgan asarlar barmoq bilan sanarli bo`lsa-da, ana shunday tiniq badiiy obrazlar yaratishga moyillik o`zbek xalqi hayoti, ongi va tafakkuridagi o`zgarishlar mohiyatini badiiy suratlarga ko`chirishda Izzat Sulton izlanishlari, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Keyingi yillar dramaturgiyamiz taraqqiyoti tarixida, xususan, Izzat Sulton ijodida, “Yangi odamlar”, “Oydin kecha asirligida” dramalari misolida kuzatilganidek, qahramonlar ruhiyatidagi o`zgarishlarni ular amaliy faoliyati bilan yaxlit uyg`unlikda aks ettirish yetakchi tamoyillardan biri o`laroq ko`zga tashlanadi. Mustaqillik sharofati bilan qo`lga kiritilgan erkin yaratuvchanlik mehnati psixologiyasini badiiy obrazlarda gavdalantirish, bunyodkorlik ruhiyatini ortiqcha jimjimadorliksiz, soxta ko`tarinkiliksiz, sodda va tabiiy yo`sinda aks ettirish tamoyili Izzat Sulton dramalarida yorqin namoyon bo`ladi.

“Yangi odamlar” dramasida dramaturg sevgi-muhabbat fonida qahramonlar ongida kechgan o`y-mushohadalarni, ko`nglida to`lqin urgan tuyg`u-kechinmalar jarayonini o`zaro uyg`unlikda kuzatishga, ko`rsatishga alohida ahamiyat bergan. Dramada Azamatning tadbirkorlik faoliyati to`g`risida so`z bormaydi. Izzat Sulton tajribali dramaturg sifatida badiiy idrok va ifodada o`zgacha yo`lni tanlaydi. Odamlar taqdirini tuyg`u-kechinmalar tahlili orqali aks ettiradi.

Tadbirkorlik umumiy fon sifatida asar ruhidan balqib turadi. Shu ma`noda, dramada ish jarayonlarini emas, odamlar taqdirini ko`rsatish ustuvor. Tadbirkorlik

odamlar psixologiyasiga qanday o`zgarishlar olib kirganligini yoritish Izzat Sulton uchun bosh muddao bo`lgan. Azamat ajoyib, barqaror xarakterga ega bo`lgan, samimiy, dono va shu bilan birga, hayron qolarli darajada kamtarin odam sifatida ko`rinadi. O`ziga o`zi sovchi bo`lib, Dilbarning uyiga kelgan Azamatni dovdir, qishloqi bir yigit sifatida qarshi olishsa-da, uning xarakterini kuzatgan Ozoda opa kamsuxan, kamtar yigit sifatida tan olganini ko`ramiz. Qalbida Dilbarga nisbatan zarracha sevgi bo`lmagan, balki, akademikning nevarasi bo`lganligi uchun unga uylanishni rejalashtirgan Akbar niyati amalga oshmasligini bilgach, sobiq kursdoshining muvaffaqiyatlaridan yaxshi xabardor bo`lsa-da, Azamatni “chayqovchi” atab, qiz ko`nglida unga nisbatan ishonchsizlik, shubha-gumon uyg`otmoqchi bo`ladi. Qizning bu holati esa, puldorlarni yomon ko`rish, ularga boshqacha ko`z bilan qarash kabi Sho`rolar davridagi tarbiyadan meros qolgan ruhiy to`lg`oqlar iskanjasidagi zamondoshlarimizni eslatadi.

Hayotdagi o`zgarishlar qahramon ruhiyatidagi o`zgarishlarni asoslaydi. Bu o`rinda shaxs va jamiyat munosabati masalasi yuzaga chiqayotir. Xususan, shaxs psixologiyasidagi sifat o`zgarishlari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar bilan asoslanadi. Modomiki, shaxs baxti oila totuvligi va baxtiyorligini ta`minlar ekan, tabiiyki, bu hol jamiyatning ham baxti barqaror ekanligini ko`rsatadi. Shunday qilib, dramaturg shaxs va jamiyat o`rtasidagi aloqalar masalasiga bashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashadi. Azamat, Dilbar, Muzaffar ota, Saidjon, Ozoda obrazlari mohiyatini ochishda psixologik tahlildan foydalanadi. Azamat, Muzaffar ota, Dilbar xarakterlarida, shaxsiyatida namoyon bo`lgan jamiyatning iqboli va istiqboli bilan bog`liq nuqtalar realizm metodining insonni anglash va tushunish haqidagi talablari bilan uyg`unlik kasb etgan. Zero, shaxs va jamiyat psixologiyasini vobasta aks ettirish realizm metodining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Izzat Sulton “Yangi odamlar” pyesasida realistlik idrok va ifoda madaniyatining mazkur ijtimoiy-psixologizm prinsipini muvaffaqiyatli egallaganini namoyish etadi.

E`tiborlisi shundaki, dramaturgning zamon va qahramon konsepsiyasida “hayotdagi o`zgarishlar yangi-yangi adabiy qahramonlarni yuzaga keltiradi;

psixologiyasidagi sifat o'zgarishlari ijtimoiy voqelik ta'sirida asoslanadi", degan bosh tamoyil yetakchilik qiladi. Shu boisdan "Yangi odamlar" dramasida real hayot bag'ridan asar sahifalariga ko'chib o'tgan, dard-tashvishlari, orzu va intilishlari, maqsad va kurashi bizga yaqin bo'lgan real hayotiy qahramonlar obrazini yaratish tamoyili tasvir markaziga chiqadi. Dilbar, Ozoda, Muattar singari xotin-qizlar obrazi, Muzaffar ota kabi yosh-u keksalar maslahatgo'yi, mahallada kechayotgan barcha past-baland ishlardan, gap-so'zlardan boxabar oqsoqol obrazi, Azamat, Saidjondek yosh tadbirkor mehnat kishilari qiyofasi, shuningdek, Akbar singari hamma zamonlarda va har qanday jamiyatlarda ham osonning ostidan, mushkulning ustidan o'tib ketaveradigan olg'ir, ustamon, mug'ombir odamlar fe'l-atvorini gavdalantirishga intilish va, umuman, o'z hayoti va idealini mustaqillikning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash ishiga safarbar etayotgan qahramonlarni komillikka intilayotgan jamiyatimiz a'zolari tariqasida gavdalantirish dramaturgiyamiz, shu jumladan, adib Izzat Sulton erishgan sezilarli yutuqlardan biridir.

Dilbar, Ozoda, Muattar kabi xotin-qizlar obrazlari misolida bugungi fikran va qalban yetuk ayollar ruhiyatidagi, ongi-dunyoqarashidagi o'zgarishlarni badiiy tadqiq etish tamoyili ko'z ochdi. Ayniqsa, Dilbar, Ozoda kabi aqlan yetuk, fikr-tuyg'ularda erkin ayollar obrazi kelgusida yaratilajak mustaqillik davri xotin-qizlari obrazini gavdalantirishda namuna bo'lib xizmat qiladi.

Dilbar obrazi o'zbek xotin-qizlari ma'naviy-intellektual takomilining yangi bir namunasi o'laroq gavdalanadi. Agar, Izzat Sultonning milliy mustaqillik davrining dastlabki yillaridagi ijodiy izlanishlariga, xususan, "Oydin kecha asirligida" pyesasidagi ayollar obrazlariga qiyosan yondashadigan bo'lsak, shaxs erki, tuyg'ular hurriyati masalasida ancha farqlar, o'zgarishlar borligini kuzatishimiz mumkin. "Oydin kecha asirligida" pyesasidagi Saodat – tuyg'ularida aldangan shaxs. U muhabbat erkinligini yoqlashga moyil va lekin ana shu mayl uni xiyonatga olib keladi.

Ko'rinadiki, fikr-tuyg'ular erki har doim ham shaxs erkini, uning ma'naviy va intellektual to'kisligini ta'minlay olmas ekan. Demak, Izzat Sultonning keyingi

yillar ijodiy izlanishlarida fikr-tuyg`u erkinligi shaxs erkinligini ifodalovchi belgi sifatida badiiy tadqiq etila boshlandi. Bu davrda milliy mustaqillik tufayli hayotimizda ro`y bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o`zgarishlar bilan birga kishilar ongi va ichki olamida ba`zi bir noxush holatlar ham ko`rinadiki, adabiyot oldida bunday holatlarga munosabat bildirish vazifasi paydo bo`ldi.

Izzat Sulton pyesalarida zamon va qahramon muammosini badiiy idrok va ifoda etishdagi sifat o`zgarishlari, shunga o`xshash masalalarda yorqin ko`zga tashlanadi. Buni “Yangi odamlar” pyesasidagi birgina ayollar obrazi tasvirida ham ko`rishimiz mumkin. Dilbar, Ozoda (“Yangi odamlar”) obrazlarini yaratishda, “Oydin kecha asirligida” pyesasida kuzatilganidek, kontrast usuli yetakchilik qilmaydi. Aksincha, xotin-qizlardagi hissiy idrokning o`tkirlashishi, mustaqillik davrining o`ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy taraqqiyot tamoyillarini tushunish va ularga moslashish jarayoni aks ettiriladi. Izzat Sulton birgina Dilbar, Ozoda obrazlari orqali aynan shu davr o`zbek xotin-qizlari hayotida ro`y bergan o`zgarishlar tabiatini, yangilanish unsurlarini badiiy umumlashtirishga harakat qiladi.

“...Harakat birligi (ya`ni, bosh g`oyaning asosan bir yagona-yaxlit voqea orqali ifoda etilishi) dramaning bosh talabidir”<sup>1</sup>, – deb yozadi adib “Drama” – “Jinslar va janrlarning normativligi va tarixiyliigi” nomli tadqiqotida. Bu borada so`z va harakat tasviridagi tig`izlik, tezlik va shiddatlilik asar muvaffaqiyatini, xususan, badiiy ta`sir quvvatini belgilovchi muhim dramatik elementlar sifatida ko`rsatiladi. Afsuski, “Yangi odamlar” pyesasida hamma o`rinlarda ham so`z va harakatning ana shu estetik vazifalarini ko`rmaymiz.

“**Azamat.** Otamning fikricha, shu xonadondagi bir qiz bilan men bir-birimizga juda mos emishmiz. Hatto, ikkalamiz bir-birimiz uchun tug`ilgan emishmiz.

**Muzaffar.** Otangning folbinlik kasbi ham bor ekan-da, yigit?

---

<sup>1</sup> Адабиёт назарияси. 2-жилд. – Тошкент, 1979. – Б. 307.



**Azamat.** Qaydam? Otam shu qizni kelin qilishni havas etibdi. “Havasga ayb yo`q” emish.

**Muzaffar.** Otangning gapida jon bor. Inson havas-orzusiz, umidsiz yashay olmaydi.

**Azamat.** Orzuimga, umidimga men endi qanday yetaman? Men shunga hayronman.

**Muzaffar.** Otang senga mushkul topshiriq beribdi-ku, bu ishni qanday boshlashni o`rgatmabdi-da.

**Azamat.** Otam menga ishongan bo`lsalar kerak. Men esa... (yelka qisib, ojizlik bilan afsus izhor etadi). Ayting, ota, ishni nimadan boshlamoq kerak?

**Muzaffar.** Ishni onasidan boshlamoq kerak. Murod-u maqsading yo`lida men senga omad tilayman.

**Azamat.** Maslahatingiz uchun, tilagingiz uchun ming bor minnatdorman, otaxon!

**Muzaffar.** Minnatdorliginni ikkalamizni duch etgan parvardigorga izhor et, barno yigit (ketadi)”<sup>1</sup>.

Mazkur dialogdagi suhbat muayyan mazmuni bo`rttirib ko`rsatuvchi harakatni ifodalayotgani yo`q. Unda xabar bor, xolos. So`z harakatdan ko`ra xabar berish vazifasini o`tayapti. Shu boisdan ham u asardagi dramatismni yoritishga xizmat qilmayapti. Aksincha, muayyan holatdagi qahramonlar o`rtasidagi oddiy replikaga aylanib qolgan. Vaholanki, Izzat Sultonning o`zi yozganidek, “Dialog dramada fikriy “qilichbozlik”dir: bir personajning zarbasi uning qarshisidagi personajning ham zarbasiga sabab bo`ladi. Hatto, do`stlar ham faqat mana shu “qilichbozlik” usulida so`zlashadilar va buning natijasida ularning hamfikrligi “to`siqlardan o`tib” yanada mustahkamlanadi. Personajlar (agar normal kishilar bo`lsa) qancha hozirjavob bo`lsalar, dramaning ta`siri shunchalik katta bo`ladi”<sup>2</sup>.

Azamat bilan Muzaffar ota suhbatida so`zlar “personajlarning o`zlarini-o`zlari va bir-birlarini tavsiflovchi vosita”ga aylanayotgani yo`q. Suhbatdan

---

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Yangi odamlar // Ёшлик, 2003. – № 3. – Б. 15.

<sup>2</sup> Адабиёт назарияси. 2-жилд. – Тошкент, 1979. – Б. 297.

tadbirkor yigit Azamat bilan mahalla oqsoqoli Muzaffar ota psixologiyasini yoritishga, xarakter xususiyatlarini bo`rttirib ko`rsatishga xizmat qiluvchi replikalar ta`sirchanligi va ma`no o`tkirlikini sezish qiyin. Bu – birinchidan.

Ikkinchidan, hali turmushda, hayotimizning o`zida tadbirkorlar shakllanib ulgurmaganligi boisidanmi, tadbirkor qanday odam? U qanday xislat-xususiyatlar egasi? degan savollar ko`ndalang bo`lishi tabiiy. Bugungi voqeligimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning fe`li-tabiatida, ish yo`sinida, xarakterida qanday belgilar bo`rtib ko`zga tashlanayotir? O`tkir zehn, aql-zakovat, uddaburonlik yonida yana yulduzni benarvon urib tushiradigan olg`irlik, ustamonlikmi? Yoxud, suvda bo`kkan qog`ozdek shalviragan, ko`zing qani desa, qulog`ini ko`rsatadigan anqovsifat holatlar ham bormi? Yoki, qadamidan o`t chaqnaydigan, yerga ursa osmonga sapchiydigan, fikri chaqmoqday yorqin va tezkor, ona yurtiga, yurtdoshlariga yaxshilik qiladigan, ana shu olijanob, ezgu millatsevarlik, vatanparvarlik fazilatlarini namoyon etish uchun o`zini o`tga-suvga ham urishga tayyor bo`lgan fidoyilarmi?

Yoki, ishsizlarga ish, yetim-yesirlarga ovqat berish o`rniga odamlar qo`lidagi oxirgi burda nonini ham tortib olayotgan muttaham lo`ttibozlarmi? Millatini, ona yurtini iqtisodiy buhronlar changalzoridan eson-omon yorug`likka olib chiqishga kamarbasta tadbirkor deganda kimning siymosini, qanday fazilatlar egasini ko`z o`ngimizda gavdalantiramiz? Bu taxlit savollar ko`p va ularga bugungi hayotimizdan javob topish ham qiyin kechmoqda. Shu boisdan ham “Yangi odamlar” pyesasidagi zamon – ijtimoiy muhit ham, tadbirkorlik harakati ham faqat ijobiy tomonlari ko`rsatilgandek, jo`n va bir yoqlama tasvirlangandek taassurot qoldiradi.

Izzat Sultonning XX asr oxiri – XXI asr boshlari, xususan, mustaqillik davridagi ijodiy izlanishlari umumdramaturgiyamiz tarixiy rivojlanishida kuzatilgan liro-psixologik tahlil badiiy-estetik tadqiqotchilik yo`nalishiga hamohangdir. “Yangi odamlar” pyesasida kuzatilganidek, bu borada shaxs va jamiyat masalasi tasviri yetakchilik qiladi. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarning shaxs psixologiyasiga olib kirgan o`zgarishlari va ana shu jarayonda

shaxsning jamiyat hayotida tutgan o`rni, ahamiyatini ko`rsatish badiiy tadqiqotchilikda ustuvor yo`nalish kasb etdi. Jamiyat psixologiyasi bilan qahramon ruhiyatini yaxlit uyg`unlikda idrok va ifoda qilishda janr nuqtai-nazaridan hamohanglik mavjud bo`lsa-da, “Yangi odamlar”, “Oydin kecha asirligida” asarlarida voqelikning odamlar psixologiyasiga ta`siri hamda shaxsning jamiyatga, shaxs va ijtimoiy muhit o`rtasidagi munosabatlar o`zgachaligi, o`zaro farqlanishi ushbu muammolarning badiiy tadqiqini, drama janri ko`rinishlarining rang-barangligini ta`minlaydi.

## **1.2. “Yangi odamlar” dramasiidagi obrazlar talqini**

“Dramatik asarning bosh qahramoni voqea emas (eposda bosh qahramon xuddi voqea edi) va muallif emas (lirikada bosh qahramon xuddi muallif edi), balki shaxsdir. Dramatik asarda nimaiki ifoda etilmoqchi bo`lsa, bizning oldimizda harakat etib turgan, ya`ni o`z oldidagi va o`z ichidagi to`siqlar bilan kurashib, ularni yengib yoki ulardan yengilib iztirob chekayotgan, quvonayotgan, tantana qilayotgan va h.k. inson shaxsi orqaligina ifoda etiladi. Shu bilan birga, shu harakat etayotgan inson obrazidan ikki narsa – obyektiv dunyo ham, uning dramaturg ongidagi in`ikosi ham qo`shilib ketadi”<sup>1</sup>.

Izzat Sultonning “Yangi odamlar” pyesasida tadbirkorlar qatlamining ikki vakili – Azamat bilan Saidjon xarakteri gavdalanadi. Biroq bu asar ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog`liq, degani emas. Asar insonning tashqi tadbirkorlik faoliyati haqida emas, aksincha, tadbirkorlar (Azamat, Saidjon) faoliyatining bugungi hayotimizdagi o`rni, ahamiyatini ko`rsatish orqali boshqa personajlar (Muzaffar ota, Ozoda, Muattar, Akbar) ning ana shu tadbirkorlikka munosabatini yoritish va yana ham aniqroq qilib aytganda, bugungi tadbirkorlarimizning ma`naviy-axloqiy saviyasini tasvirlashga bag`ishlangan.

---

<sup>1</sup> Адабиёт назарияси. 2-жилд. – Тошкент, 1979. – Б. 294.

“Yangi odamlar” pyesasining bosh qahramoni Azamatning xatti-harakatlari tasviri obraz ichki dunyosini ochishga qaratilgan. U go`zal, ismi jismiga monand suluv qiz Dilbarni bir ko`rishdayoq sevib qoladi. U Surxondaryodan Toshkentga kelgan va baxtli tasodif tufayli Dilbar yashayotgan Komilovlar xonadoniga boradi. Ota-onadan olisda qolgan Azamatning o`z muhabbatiga yetishish uchun intilishi asar konfliktining botiniy – tuyg`u-kechinmalar, fikrlar kurashi tarzida kechishini asoslaydi. U zehni o`tkir, vaziyatdan chiqish uchun omilkor emasmi, Dilbar muhabbatiga yetishish niyatida o`zi uchun o`zi sovchilikka borishga ahd qiladi.

**“Muattar.** Rahmat xola! Ajoyib sovchiga qanday javob berdingiz?

**Ozoda.** Hech qanday javob berganim yo`q.

**Dilbar.** Nega javobini berib yubormadingiz?

**Ozoda.** Sovchilarga rad javobini beraverib, jonimdan to`yganman, qizim. Bugal javobini sen ber. (Sukunat)

**Muattar.** Siz Dilbaringizni juda ham mushkul ahvolga solibsiz. Hali hech bir qiz sovchiga o`zi javob bergan emas.

**Ozoda.** Men ham bir yangilik qilay, dedim-da, jiyan. (Kuladilar)

**Muattar.** Demak, yigit yana keladi.

**Ozoda.** Ha, keladi. Bugun qizimning tug`ilgan kuni ekanligini aytib, kechki dasturxonimizga taklif etdim. (Kuladi) Axir, uzoqdan kelgan mehmonga bir nav hurmat ko`rsatish kerak-da! (O`ylanib turib) Rostini aytsam, shu yigitga o`zim rad javobini berishga qurbim yetmadi.

**Muattar.** Yetti yot kishiga rahmingiz kelibdi. Sabab?

**Ozoda.** Bu yigit Dilbarga oshiq-u beqaror! Devona desa ham bo`ladi.

**Muattar.** Gaplaringiz yana ham qiziq! Yigit va qiz bir-birini biror marta ko`rmagan bo`lsalar, oshiqlar qanday kelib chiqdi?

**Ozoda** (kulib). Menga kuyov bo`lishni orzu etgan yigit o`zi qizimni tilab kelibdi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Иззат Султон. Янги одамлар // Ёшлик, 2003. – №2. – Б. 16.

<sup>2</sup> Адабиёт назарияси. 2-жилд. – Тошкент, 1979. – Б. 296.

Azamatning ko'ngil ra'yini personajlar turlicha talqin qilishadi. Ozoda yangilik, deya baholash bilan barobar, yana dovdirlilik alomati bo'lsa kerak deb gumonsiraydi. Muattar esa, yigit tomonidan dadil shijoat, jasorat, deb tushunadi. Azamat o'ziga ishonchi qat'iy, tuyg'ularini qadrlay bilgani, hurmat qilgani uchun ham shunday dadil qadam qo'ygan, deb biladi. Izzat Sulton yozganidek, "Dramada harakat faqat jismoniy harakat ma'nosida emas, balki dastavval va boshlicha muallif ifoda etmoqchi bo'lgan bosh g'oyaning rivoji ma'nosida tushunilganidek, konflikt ham bosh qahramon (yoki qahramonlar) ning o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida uchratgan to'siqlarini yengishi jarayoni ma'nosida, ya'ni keng ma'noda tushinilishi kerak"<sup>1</sup>.

"Yangi odamlar" pyesasida bosh qahramon Azamat bilan Dilbar oldida turgan asosiy to'siq, dastavval, ularning ichki dunyosiga taalluqlidir. Bugunning ilg'or, peshqadam yoshlari bo'lgan Azamat, Dilbar va Saidjonlarning ongi – dunyoqarashidagi yetakchi fazilat ular ichki dunyosining sofligi bilan belgilanadi. Akbar singari kimsalar esa, ulardan farqli o'laroq g'ayirligi, boshqalarni ko'rolmasligi bilan ajralib turadi. Ana shu ma'naviy yetuklik ilg'or gumanistik pozitsiya bilan ruhiy qashshoqlik o'rtasidagi ixtilof, nomutanosiblik asar voqealari ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Birgina Azamat bilan Dilbar sevgi-muhabbatga, oilaga munosabati masalasida shaxs tabiatidagi mazkur alomatlar millat va Vatan manfaatlarini bilan uyg'unlashganligi boisidan ham oddiy tushunchalar holatidan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga aylanadi. Ijtimoiy ma'no kasb etgan holda odamlar faoliyatidagi go'zallikni namoyon etuvchi amaliy g'oyalar tusiga kiradi. Odamlar xatti-harakati, mehnati va faoliyatini millat, Vatan manfaatlarini bilan tutashtiruvchi, birlashtiruvchi ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida qadr topadi, e'zozlanadi.

Zamon zayliga qarab ish yuritish, ijod qilish Izzat Sultonning bosh ijodiy niyati edi. Bu narsa qahramonlarning fe'li-faoliyatida, ayniqsa, bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy darajasi millatning ruhiy-intellektual saviyasi bilan o'lchanar ekan, buning uchun zamon tuyg'usini his eta bilish

---

tamoyili bosh mezon vazifasini o`taydi. Inson umri va uning ado etgan yumushlari tarixiy davr sahnida, xalqning ma`naviy hayotida, iqtisodiy kamolida nechog`lik ahamiyat kasb etishi nuqtai nazaridan baholanadi. Shu boisdan ham Izzat Sulton dramasi obrazlar tizimi va qahramonlar tabiatida davr ikki xil planda tajassum topadi. Xususan, “Yangi odamlar” pyesasida ayrim qahramonlar uchun (masalan, Akbar) zamon, bu oddiy tirikchilik qilinadigan, turmush kechiriladigan damlar tariqasida anglashiladi. Asarning asosiy ijtimoiy-g`oyaviy mazmuni yuklatilgan Dilbar, Azamat singari qahramonlar uchun esa zamon, bu – tarixiy bir davr sifatida tushuniladi. Inson qisqa umri mobaynida o`z “men” ini namoyon etuvchi, o`zligini kashf etuvchi, jamiyatning ongli a`zosi sifatida millat hayotining muhim bir pallasida o`zidan iz qoldiruvchi, odamlarga naf keltiruvchi tarixiy shaxsdir.

Pyesada qahramonlar (Azamat, Saidjon) ko`nglida jo`sh urgan hissiyotlar, kechinmalar o`z mushohada-o`ylari bilan ular faoliyatini, xatti-harakatini boshqaradi. Qalbida Dilbarga nisbatan zarracha sevgi bo`lmagan, balki “akademikning nevarasi” bo`lganligi uchun unga uylanmoqchi bo`lgan Akbarning hissiy mushohadalari shu jihatdan xarakterlidir:

“**Akbar** (garang. Ancha jim turgandan keyin). Ana xolos. “Takror aytar emish. Oyimni shoshiltirmang” emish. Noshukur Dilbar, men senga shafqat qilib, seni o`zimga teng ko`rib, jazmanlik izhor etsam-u, sening javobing, shumini? (Uning g`azabi orta boradi.) Ana g`urur! Ana kibr! Bu yetimchanning kekkayishini qaranglar-a! Menday yigit uchun bu javob haqorat-ku! Sen o`zing kimsan, Dilbar? “Akademikning nabirasi” degan nomi ulug`, suprasi quruq bir yetimchasan, xolos! (Yana ham ortiqroq g`azab bilan.) Hali qarab tur, men seni uyimga olib boray, undan keyin mendan ko`radiganingni ko`rasan, yetimcha yetti kulcha! (Chiroq o`chadi.)”<sup>1</sup>

Azamat, Saidjon singari tadbirkorlar o`z tabiatidagi yuksak insoniy fazilatlarini bilan bizni maftun etsa, Akbar xudbin fe`l-atvori bilan ajralib turadi. U hiyla, mug`ombirlik bilan Dilbar ko`nglini band etmoqchi bo`ladi. Lekin,

---

<sup>1</sup>Иzzат Султон. Янги одамлар // Ёшлик, 2003. – №2. – Б. 17.

“odamning olasi ichida”, deganlaridek, Akbar fe’lidagi mug’ombirlik, hiylanayrang o’zini o’zi fosh qiladi.

Dramaturg qahramonlar xarakterini ochishda psixologik tahlil yo’lidan boradi. Mazkur psixologik tahlilning tabiati o’zgacha. Qahramonlar o’z niyatlarini, fe’l-u faoliyatini tavsiflash orqali o’zligini namoyon etadilar. Oqibatda qahramonlar ko’nglidagi kechinmalar mushohadalar qo’zg’algan holda ular fe’lidagi o’zgarishlarni ifodalaydi. Xususan, Azamatning Muzaffar ota bilan suhbat, Dilbar, Ozoda opa bilan muloqotlari, sevgi-muhabbatga, ayolga, oilaga bo’lgan munosabatidagi yuksak odamiyligi, olijanoblighi nafaqat jismoniy yetukligi, shu bilan barobar qalb chiroyi, ma’naviy-intellektual saviyasi bilan ham alohida ajralib turadi. O’quvchi ko’nglida ham hurmat-e’tibor, mayl tuyg’ulari uyg’otadi. Azamat, Dilbar singari qahramonlar yonidagi Saidjon, Muzaffar ota, Ozoda, Muattar kabi zamondoshlarimiz fe’l-atvori va tabiatidagi xarakterli xususiyatlarning namoyon etilishi bilan nufuzlidir.

Izzat Sultonning ijodi evolutsiyasiga nazar tashlagudek bo’lsak, deyarli barcha sahna asarlarida ko’proq inson shaxsi va tabiatidagi go’zallikni badiiy tadqiq etish tamoyili yetakchilik qilganini ko’rishimiz, kuzatishimiz mumkin. “Alisher Navoiy”, “Imon” singari badiiy barkamol asarlaridan boshlab, “Yangi odamlar” kabi pyesalarigacha aynan ana shu tamoyil – inson shaxsini nurlantirib turgan ma’naviy-intellektual go’zallikni badiiy jozibaga aylantirish tamoyili bo’rtib turadi. Inson ma’naviyatidagi go’zallikni faoliyatida, hayotiy jarayonlarda ko’rsatish “Yangi odamlar” pyesasidagi Azamat, Saidjon singari tadbirkorlar psixologiyasini anglashimizda katta yordam beradi.

Bu borada Saidjon bilan Muzaffar ota o’rtasida kechgan suhbat, ayniqsa, xarakterlidir.

**Saidjon.** Salom, otaxon!

**Muzaffar.** O’ Saidjon! Ko’ngilning ko’ngilga to’g’riligi-da, xuddi shu topda sen bilan uchrashuvni niyat qilib turgan edim. Salomatmisan? Ishlaring qalay?

**Saidjon.** Xudoga shukur. Hamma ishlarim joyida. Sog’lig’im esa – otdekman.

**Muzaffar.** Biz tomonlarda kamnamosan?

**Saidjon.** Ishlar ko`p. Mamlakatlar va xalqaro chakana va ulgurji savdo avjida. Bir oyog`im Toshkentda bo`lsa, bir oyog`im Pekinda. Bosh qashishga qo`l tegmaydi. Bugun ham bog`imdan bir xabar olay, qorovulimdan hol-ahvol so`ray deb bir-ikki soatga kelgan edim. Yana otchoparga shoshaman. Tadbirkorning hayoti shunday bo`lar ekan, ota!

**Muzaffar.** Taqdiringdan nolimasang ham bo`ladi, Saidjon. Ko`plar senga havas, hatto hasad ham qiladi.

**Saidjon.** Men o`zim ham kasbimdan juda mamnunman. Ammo, bu kasbni egallash bizga oson bo`lmadi. Avvaliga bizni “chayqovchilar”, deb masxara qilishdi ko`p odamlar. Keyin “mokkilar” degan ancha beozor nomga ega bo`ldik. Mana endi biz kommersantlarmiz. Biz, kommersantlar tufayli yurtimiz jahon bozoriga chiqdi. Xalqimiz olamdagi hamma narsalardan bahramand bo`ldi. Xalqimizga ham foydamiz tegdi. O`zimiz ham mulkdor bo`lib oldik.

**Muzaffar.** Ha. Ko`p jihatdan olganda xalqimiz sizlar tufayli farovonlik yo`liga chiqib oldi. Endi, yildan-yilga mushkulimiz oson bo`laveradi.

**Saidjon.** Men shu savob ishga daxlim borligi bilan faxrlanaman”<sup>1</sup>.

Ko`rinadiki, pyesada keyingi paytda zamondoshlarimiz tabiatidagi xarakterli belgilar tadbirkorlikning afzalliklari bilan barobar yana shaxsiyatini shakllantirgan ijtimoiy muhitni, ruhiyatni tarbiyalagan ma`naviy asoslarni badiiy tadqiq etish tamoyili kuchli. Azamat bilan Saidjon singari tadbirkorlar faoliyati va xatti-harakatlaridagi umumxalq ishi uchun jonkuyarlik, ma`naviy yetuklik, axloqiy pokizalik, o`z burchiga chuqur mas`uliyat hissi singari xususiyatlar bugungi dramaturgiyamiz qahramonlari tabiatidagi ko`zga tashlanayotgan yetakchi fazilatlardir. Bular davr ruhining qahramonlar fe`li-faoliyati, yumushlari orqali aks ettirilayotganligini anglashimizga ko`mak beradi.

---

<sup>1</sup>Иззат Султон. Янги одамлар // Ёшлик, 2003. – №2. – Б. 18.



Izzat Sulton keyingi yillardagi izlanishlarida, “Yangi odamlar” pyesasidagi Azamat, Saidjon, Muzaffar ota obrazlar talqinida kuzatilganidek, qahramonlarning hayot bilan, xalq turmushi bilan aloqalarini yoritishga ham alohida eʼtibor berganligiga guvoh boʻlamiz. Xususan, zamondoshlarimiz tabiatidan qahramonlar ruhiyatiga koʻchib oʻtgan olijanoblik, xalq ishiga kamarbastalik, atrofdagilarga mehr-shafqat, muruvvat, himmat koʻrsatish kabi xususiyatlar adibning badiiy-estetik qarashlari inʼikosidir. Qahramonlar (Azamat, Saidjon, Muzaffar ota) oʻzlarining fikrlash tarzi, mushohada-mulohaza yuritish saviyasiga koʻra zamondoshlarimizning maʼnaviy-intellektual madaniyati darajasini ifodalaydi. Bu narsa dramaturgning milliy mustaqillik davrida jamiyatimiz erishgan maʼnaviy-axloqiy asoslarni aks ettirishga alohida ahamiyat berganligi dalolatidir.

Shunisi xarakterliki, Azamat, Dilbar kabi qahramonlar tabiatida namoyon boʻlgan ushbu xususiyatlar xalqimizning turmush tarzi bilan uygʻunlikda aks ettiriladi. Mustaqillik sharofati bilan yuzaga kelgan yangi voqelik, ijtimoiy munosabatlar inson shaxsida tarbiyalanib kamol topayotgan xalqqa, Vatanga, tugʻilib oʻsgan ona tuproqqa mehr-muhabbat kabi qutlugʻ tushunchalar avloddan avlodga oʻtadigan boqiy maʼnaviy-intellektual qadriyatlaridir, degan maʼno qahramonlar faoliyatidan balqib turadi. Bu narsa “Yangi odamlar” pyesasi tajribasi misolida Izzat Sulton qahramonlari tabiatini namoyon etuvchi mustaqil maʼnaviy-axloqiy yoʻnalishni tashkil etadi.

Shaxsning jamiyatga munosabati va ular oʻrtasidagi robitalar koʻp tushunchalardan tashkil topgan. U shaxsning oilaga, farzandga munosabati, sevgi-muhabbat, sadoqat, baxt, goʻzallik tushunchalarining talqinlarini oʻz zamiriga singdirgan holda zuhur topadi. Shu maʼnoda, Izzat Sulton pyesalari qahramonlari, xususan, tadbirkorlar obrazi (Izzat, Saidjon) va ular atrofidagi Muzaffar ota, Ozoda Muattar kabi personajlar psixologiyasi, ularning intilishlari, qiziqishlari orqali davr qiyofasini bir qadar koʻz oldimizga keltirishimiz mumkin. Ularning oʻy-mushohadalari, orzu-intilishlari, koʻnglini oʻrtayotgan muammolar asosida har bir davr oʻz qahramonlarini yaratadi, degan fikr rost ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz:

“**Muzaffar**. Taqdiring eshigi bugun ochilmadimikin, Saidjon? Sening xuddi shu bugun, xuddi shu soatda menga duch kelishing, menimcha, sira tasodif emas. Bu – taqdir alomati.

**Saidjon**. So`zlarinigzga sira tushunolmayapman, otaxon.

**Muzaffar** (Komilov xonadoniga ishora qilib). Baxting eshigi ochilgan, yigit. Xudo haqqi, men buni ko`ngil ko`zi bilan ko`rib turibman.

**Saidjon** (ajablanib). Ko`ngil ko`zi?

**Muzaffar**. Ko`ngil ko`zi! Dil ko`zi! Ha, dunyoda shunday mo`jizakor narsa bor. Odamlar deyarli har kuni shu mo`jizaga duch kelib turadilar, ammo bu haqiqatni tan olishni istamaydilar, chunki boshqalarga nodon, qoloq, johil bo`lib ko`rinishdan qo`rqadilar. Ko`ngil ko`zi, dil ko`zi eng o`tkir ko`z!

**Saidjon**. Dilingiz ko`zi bilan taqdirim eshigiga bir nazar tashlang, ota. Nimalarni ko`rasiz?

**Muzaffar**. Xudo haqqi, aniq ko`rib turibmanki, sening jufti haloling, bo`lajak umr yo`ldoshing hozir shu xonadonda sayr etib yuribdi (Komilovlar bog`iga ishora qiladi)”<sup>1</sup>.

Har ikki qahramonning ishq-muhabbatga munosabati orqali ularni ko`ngil ma`rifatidan, ma`naviy madaniyatidan axloqan yetuk odam sifatida anglaymiz. Tuyg`ular samimiyati ko`ngil pokdomonligining belgisi sifatida niyatning xolisligi va fikr-mushohadaning sofligini asoslab keladi.

Demak, “Yangi odamlar” misolida aytish mumkinki, dramaturg mustaqillik davri kishilari qalb tarixini, zamondoshlarimizning mustaqillikning ilk samarasi – tadbirkorlikka bo`lgan munosabatini ko`rsatish uchun tuyg`u-kechinmalari tarixini bayon etish barobarida davrning ma`naviy muhitini tiklashga intilishi bilan birga o`z orzu-umidlarini ham aks ettiradi. Ya`ni, qahramonlar (Azamat, Dilbar) psixologiyasidagi evrilishlarni voqelikdagi o`zgarishlar bilan uyg`unlikda badiiy mujassamlantiradi.

---

<sup>1</sup>Иззат Султон. Янги одамлар // Ёшлик, 2003. – №2. – Б. 18.

Demak, har bir ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy davr o'z qahramonlari orqali ma'naviy-intellektual darajasini namoyon etar ekan. Mustaqillik davrining ilg'or farzandlari bo'lmish tadbirkorlar jamiyatimizdagi yangi odamlar sifatida ta'riflanayotir. Aslida, ular g'oyibdan kelgan kishilar emas. Jamiyatga, mehnatga, tevarak-atrofga yangicha nigoh tashlayotgan va baholayotgan, yangicha munosabat bildirayotgan zamondoshlarimiz. Azamat, Saidjon singari qahramonlar esa ana shu hayot qahramonlarining sahnaga ko'chirilgan qiyofadoshlari. Izzat Sultonning ijodiy niyatini amalga oshirayotgan ijodiy salafлари. Azamat, Saidjon, Dilbar shaxsiyatida ko'ringan o'tkir zehn, aql-zakovat, salohiyatni yoritish orqali shaxsning jamiyatga, odamlarga, voqelikdagi jarayonlarga nisbatan faol munosabati ayonlashadi. Natijada, ular o'z mehnati bilan o'z taqdirini, ijtimoiy faoliyati sahifalarini yaratadilar. Bugunning ijtimoiy faol fuqarolari – tadbirkorlar haqidagi adib ijodiy niyatining amaliy bir holatidir.

To'g'ri, ana shu faol qahramonlar qiyofasi har bir ijtimoiy-siyosiy voqelik jarayonida turlicha shakl-shamoyilda, mazmunda namoyon bo'ladi. Uning badiiy tajassumi esa, Izzat Sultonning dunyoqarashi, estetik prinsipi o'laroq zamondoshlarining shaxsiyati va taqdirini tushunishi, idrok etishi va ifodalashi bilan, bir so'z bilan aytganda, inson konsepsiyasi bilan bog'liq.

“Yangi odamlar” pyesasidagi tadbirkorlarning ma'naviy-intellektual salohiyati aniq xatti-harakatlar, yumushlar doirasidan kengroq, ko'lamliroqdir. Izzat Sulton qahramonlari (Azamat, Dilbar), avvalo, yuksak axloqiy xislat-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oilaga, ishq-muhabbatga, o'z kasb-kori va jamiyatga bo'lgan munosabatiga, e'zoz-e'tiboriga ko'ra ular tabiatidagi jihatlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlar maqomida hufuzlidir. Bu bejiz emas, albatta. Zero, Izzat Sultonning nafaqat “Yangi odamlar” pyesasida, umuman, “Oydin kecha asirligida”, “Imon”, “Ko'rmayin bosdim tikanni” va boshqa dramalarida ham inson sha'ni va g'ururi nihoyatda baland. Negaki, insonning o'zi buyuk va betimsol qadriyat sifatida badiiy-estetik talqin etiladi. Birgina Azamat, Saidjon xarakter-xususiyatlarida kuzatilganidek, ishchanlik, o'z kasbiga sadoqat, o'z sohasining mohir bilimdoni bo'lishning o'zi kifoya qilmas ekan. Tadbirkor odam yana yuksak

insonparvarlik, birdamlik, hamkorlik, himmat, sahovat, halollik singari xususiyatlarni ham o'z tabiatida mujassamlantirgan bo'lishi kerak ekan.

“Yangi odamlar” pyesasidagi akademik Yo'ldosh Komilovning bog'-hovlisi va umuman, ko'p o'rinlarda ta'kidlanadigan bog', bu – shunchaki besh-o'nta ko'chatlardan tarkib topgan daraxtzor emas, ramziy ma'noda uning ortidan qolgan amallari, oilasi, avlodi hamdir. Asardagi bog', umuman, tabiat tasviri shunchaki fon emas, balki bevosita asar qahramonlarining psixologiyasini ochishga, ularni faoliyatga da'vat etishga xizmat qiladi. Ana shu ma'noda bog' – mustaqillik shabadasida shovullayotgan ona-Vatanning timsoli, ona-yurt tushunchasini anglatadi. Bog' – ona-tabiat qahramonlarni (Azamat, Dilbar, Saidjon) ruhlantirib, bag'rida ardoqlab, faollikka, bunyodkor mehnatga da'vat etibgina qolmay, shu bilan birgalikda qahramonlarning sadoqati va e'tiqodini, sabr-matnatini sinovdan o'tkazuvchi ko'ngil ma'vosiga ham aylanadi.

Drama adabiyotning sintetik (qorishiq) turi bo'lganligi sababli unda lirikaga xos unsurlar, masalan, lirizm yo'q emas. Izzat Sulton dramatik asarlardagi lirizm haqida shunday deydi: “Lirizm (subyektiv asos) dramada, dastavval, dramaturgning tasvir etilayotgan voqea va personajlarga munosabatida, asarning g'oyaviy asosida, uning tamoyilida namoyon bo'ladi... Dramada, ya'ni muallif voqealarga bevosita ishtirok etishdan mahrum etilgan adabiy tur asarlarida lirizm o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi”<sup>1</sup>. “Yangi odamlar” dramasida lirizmning ana shunday pinhona ko'rinishini kuzatamiz. Dramatik asarda tabiat tasviri remarkalarda, qahramonlarning yashash sharoitida va qahramonlarning replikalarida beriladi. Dramaturg asarda *bog'* obrazidan keng foydalanib, remarkada Komilovlar oilasi yashagan bog'ni tasvirlashga alohida e'tibor qaratadi. Buning boisi shundaki, *bog'* asarda ma'lum ma'noda davrning, mamlakatdagi hayotning, Komilovlar oilasidagi muhitning ramzidir. Izzat Sulton bog'ni badiiy

---

<sup>1</sup> Иzzат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005. – Б. 189.

timsol darajasiga ko`taradi. Shu jihatlariga ko`ra bog` obrazi – tabiat tasviri drama strukturasida muhim o`rin tutadi.

Mustaqillik davri dramaturgiyamizda zamon va insonni badiiy tadqiq etishdagi o`ziga xoslik, mushtaraklik ham hayotbaxsh g`oyalarning yaqinligi bilan izohlanadi. Bu borada birgina **tong** va **bog`** ramzlarini olib ko`raylik. Ular fikrimizni isbotlashda bizga yaqindan yordam beradi. Masalan, (“Yangi odamlar” pyesasi) marhum akademik Yo`ldosh Komilovning bog`-hovlisidagi tong tasviri bilan bog`langan, **bog`** va **tong** obrazlari ramziy ma`nodorlikka ega. Garchand, boshqa-boshqa ma`nolarni ifodalasa ham, ular asarning g`oyaviy-badiiy ko`lamidan kelib chiquvchi hayotbaxsh g`oyalarning mohiyatiga ko`ra mushtarak ma`noga ega. Bu har ikkala timsolli obraz mustaqillik davri zamondoshlarimiz hayotida yangi ozodlik tonglari otganligini, yangidan yorug` kunlar boshlanganini, bog`-rog`lar ifori bilan muzayyan tonglarning ko`z ochganligini anglatadi.

Agar e`tibor bersak, Izzat Sultonning “Alisher Navoiy”, “Imon” asarlaridan boshlab, “Yangi odamlar”, “Oydin kecha asirligida” asarlarigacha, adib ijodida ijtimoiy mazmunning yetakchiligi ko`zga tashlanadi. Adib pyesalarida shaxsning jamiyat, el-yurt oldidagi mas`uliyati qahramonlar faoliyatini baholovchi asosiy mezonga aylanadi. Birgina, “Yangi odamlar” pyesasini oladigan bo`lsak, yangi odamlar milliy xarakterlarning, tadbirkorlikning yaratuvchilik faoliyatini, mehnatga, oilaga hamda sevgi-muhabbat tuyg`ulariga bo`lgan munosabatlarini yoritishda, odamlar o`rtasidagi yangicha munosabatlar asosini ochishda, ijtimoiy voqelik mohiyatini detallar vositasida aks ettirish mayli yetakchilik qiladi.

Ma`lumki, qahramonlar xatti-harakatining psixologik jihatdan asoslanishi, sahna asarlari muvaffaqiyatini ko`p jihatdan belgilab beradi. Shu ma`noda, “Yangi odamlar” pyesasidagi tadbirkorlar qiyofasini gavdalantirishda qalb dramasini, tuyg`ular kolliziyasini yoritish orqali muvaffaqiyatga erishilgan. Azamat, Saidjon xarakterlarini badiiy umumlashtirishdagi ushbu usul Izzat Sultonning boshqa asarlarida, xususan, “Oydin kecha asirligida”, “Qaqnus”, “Abdulla Qodiriyning o`tkan kunlar” singari dramalarida ham samarali istifoda etilganligini ko`ramiz.

“Yangi odamlar” pyesasida esa tadbirkorlar (Azamat, Saidjon) xarakterlarining ochilishi, ushbu jarayondagi tuyg`ular inkishofi hayot haqiqati bilan uyg`unlikda o`z aksini topadi. Shu bilan barobar, qahramonlar xarakterini namoyon qilishdagi badiiy vositalar har bir holatda ham o`ziga xosliklarga ega. Xususan, Azamat ruhiyatini ochishda e`tirof va talqin yo`lidan borilsa, Saidjon qalbidagi his-tuyg`ularni ifodalashda publitsistik nutq vositalaridan foydalanilgan.

Mazkur usul qahramonlarning katta sinovdan o`tishida, bir-birlariga nisbatan ishonch, e`tibor, samimiyat masnadlaridan o`tib, muqaddas oila qurishdek qutlug` bo`sag`aga kelishidagi tuyg`u-kechinmalarni to`laroq ochish imkoniyatini bergan. Shu boisdan ham dramaturg o`z qahramonlarining qalb daftarini asta-sekin varaqlayotgandek, sahifalaridagi kechinmalar ziddiyati bilan qahramonlarning go`zallik ideali, hayotiy ideal yo`lidagi intilishi, sa`y-harakatlari bilan bizni tanishtira boradi. Ma`naviy-axloqiy fazilatlaridan voqif etadi. Hayot oqimida fe`lidagi yetakchi xususiyatlarning namoyon bo`lish asnolarini suratlantirishga erishadi. Birgina beshinchi ko`rinishdagi Akbar va Azamat o`rtasida kechgan suhbatni olib ko`rsak. Ikki sobiq kursdosh Azamat va Akbar ko`chada uchrashib qolishadi. Ushbu vaziyatda har ikkisining bir-biriga bo`lgan munosabati orqali xarakterlarini ham oshkor etishadi:

**Akbar.** Yo, pir-ey! Azamatmisan, yigit?

**Azamat.** Xuddi o`zi! Salom, Akbar!

**Akbar.** Ko`zlarimga sira ishonmay turibman. Tushimmi, o`ngimmi bu?

**Azamat.** O`nging.

**Akbar.** Yo`g`-e!

**Azamat.** Ishonaver, sobiq kursdosh.

**Akbar.** Mashhur chayqovchi student Azamatman, degin?

**Azamat.** (kulib). Hamma sifatlarimdan faqat chayqovchiligim esingda qolibdi-da, noinsof!

**Akbar.** Ko`nglingga olma, do`stim! Nima qilayki, necha yillardan keyin qo`qqis uchrashganimizda xayolimga kelgani shu bo`ldi. O`zing ham

chayqovchilikda ustasi farang eding-da. Xo`sh, bu tomonlarga qaysi shamol uchirdi seni?

**Azamat.** (nima deyishini bilmay, ancha jim turgandan keyin). Shu tomonlarda bir bog` xarid etib, obod qilish niyatim bor.

**Akbar.** O`-o`. Rejalaring zo`r-ku?

**Azamat.** “Yaxshi niyat yorti mol”, deganlaridek...

**Akbar.** Bundan chiqdi, muvaffaqiyatlar haqiqatdan zo`r!

**Azamat.** Ha. Ishlarim axiyri yurishib ketdi. Mening muvaffaqiyatlarimni sen qayerdan bilasan?

**Akbar.** Qayerdan bo`lar edi, gazetalardan-da!”<sup>1</sup>

Akbar fe`lidagi xudbinlikni, o`zgalar muvaffaqiyatini ko`rolmaslikni, g`ayirlikni kursdosh do`sti Azamatga bo`lgan piching, mensimaslik ohangidan payqashimiz mumkin. Akbar aslida yomon odam emas. Faqat omadi chopmaganligidan sevgi-muhabbatda ham baxti butun emas. U Azamat bilan kursdosh. Lekin hamkor, hamnafas emas. Fe`lidagi g`ayirlik, bepisandlik oqibatida ish faoliyatida ham noshudligi pand bergan. U Azamatning tadbirkorlikdagi yutuqlarini tan olgisi yo`q. Tijoratdagi omilkorlikni chayqovchilikka yo`yadi.

Akbar fe`lidagi ichiqoralik sababidan, hatto Dilbarning husni-malohati, aqlini e`tirof etishga ko`ngli dov bermaydi:

“**Akbar:** ... Noshukur Dilbar, men senga shafqat qilib, seni o`zimga teng ko`rib, jazmanlik izhor etsam-u, seni javobing shumini? (Uning g`azabi orta boradi) Ana g`urur, ana kibr! Bu yetimchaning kekkayishini qaranglar-a! Mendek yigit uchun bu javob haqorat-ku!..”<sup>2</sup>

Ko`rinadiki, Akbar fe`lini, ichki kechinmalarini ko`rsatishda psixologik holat publitsistik nutq orqali o`z ifodasini topib, yaxlit uyg`unlikni tashkil etadi. Qahramonlar faoliyati bilan ruhiyatini gavdalantirishdagi ichki monolog,

---

<sup>1</sup> Иззат Султон. Янги одамлар // Ёшлик, 2003. – №2. – Б. 19-20.

<sup>2</sup> Ўша манба. – Б. 17.

publitsistik ifoda ularning burch, mas`uliyat, sadoqat haqidagi o`y-mushohadalari bilan qo`shilib ketadi.



## II BOB. IZZAT SULTON DRAMATURGIYASIDA TASVIR VA TALQIN

### 2.1. Qahramon va konflikt masalasi

Izzat Sulton XX asr o`rtalarida yaratilgan “Imon”, “Ko`rmayin bosdim tikanni” dramalarida ilgari surgan muhim ijtimoiy-ma`naviy, axloqiy muammolarni XXI asr tongida yaratgan asarlarida ham badiiy tadqiq etdi. Vijdon, burch, or-nomus, muhabbat singari ruhiy va ma`naviy masalalar xususida, chuqur ijtimoiy ma`no kasb etgan oila va burch, shaxs va jamiyat muammolari haqida dramalar yaratdi. Demak, Izzat Sulton XX asrning 80-yillaridayoq badiiy konfliktning qalb dramatizmiga, tuyg`u-kechinmalar kolliziyasi (to`qnashuvi)ga asoslangan ko`rinishiga murojaat qilganligini “Imon”, “Ko`rmayin bosdim tikanni” dramalarida kuzatishimiz mumkin.

Shu o`rinda adabiyotshunoslikda ko`p bor istifoda etilayotgan “konfliktning tuyg`ular, kechinmalar kolliziyasi shakli” o`zi nima, degan savol tug`iladi. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati”da “badiiy konflikt”ga shunday ta`rif beriladi: “Kolliziya – to`qnashuv, qarama-qarshilik so`zidan olinib, badiiy asarda xarakterlarning o`zaro kurashi, sharoit va xarakterlar o`rtasidagi to`qnashuv deb baholanadi”<sup>1</sup>. Mazkur ta`rifga qo`shimcha sifatida shuni aytish mumkinki, “kechinmalar kolliziyasi” – asar qahramonlari ruhiy olamini namoyon etuvchi, ular ruhiyatida kechayotgan o`zgarish va to`qnashuvlar tabiatini ifodalovchi tuyg`ular kurashidir.

Ko`rinadiki, konfliktning botiniy – kolliziya shaklidan foydalanish adabiyotimizning barcha turlari va janrlarida – epos, romanlarda bo`lganidek, dramaturgiyada ham samarali kechmoqda. Drama janrida ham, boshqa adabiy janrlar qatori, qahramonlarning ichki dunyosini bor ziddiyatlari bilan yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ruhiy olamini kashf etish psixologik tadqiqotchilik madaniyatidan talab etilayotgan bosh maqsad bo`lib bormoqda.

---

<sup>1</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 157.

Dramada tuyg`ular kolliziyasini ifodalash ancha murakkab masala hisoblanadi. Vaqt, o`rin, sharoit birligiga asoslangan bu turda qahramon ruhiyatida kechayotgan buhronlarni yoritish ancha mushkul. Qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyatli o`zgarishlar – o`y-xayollar dramasini berish asar dramtizmini oshiradi. Dramaturg Izzat Sulton tuyg`u-kechinmalar kolliziyasidan foydalanar ekan: a) qahramonlar chorasiz qolib, tushib qolgan qiyin sharoitlari tabiatini zohir etishga; b) qahramnlari o`ylantirayotgan jumboqlarni, qiynayotgan muammolarni, ma`naviy dunyosida kechayotgan o`zgarishlarni yuzaga keltirishga alohida e`tibor beradi.

Demak, konfliktning tuyg`ular kolliziyasi asar sujeti rivojiga yordam berishdan tashqari, uning dramtizmini kuchaytirishga xizmat qiladi. Jumladan, “Oydin kecha asirligida” pyesasining qahramoni Saodatning boshidan o`tgan savdolar, u tushib qolgan vaziyat uni so`ngsiz iztiroblarga soladi, qayg`uga botiradi. Insonning ichini kemiradigan davosiz dard, vijdon azobi Saodatning qalbida kechinmalar ziddiyatini yuzaga chiqaradi. Uning ifoda, zohir bo`lish shakllari ham xilma-xildir. Saodatning fe`lida, tabiatida ko`rganimizdek, qahramonning xayollar iskanjasida qolishi, o`zi bilan o`zining ichki olishuvi, yengishi, tuyg`ularga berilishi, ko`ngilchanlik singari belgilar namoyon bo`ladi. Demak, Saodatni ma`naviy poklanishga undagan ichki da`vat ruhiy iztiroblar, qiynoqlar asosini belgilab beradi. Saodatning boshiga tushgan bu savdolar – adashish, xiyonat uni og`ir o`ylarga cho`mdiradi, afsus-nadomat chektiradi. U qilgan xatosini tushunadi va bu vaziyatdan osonlikcha chiqib keta olmasligini biladi. Bo`lib o`tgan voqealar uning ichini kemiradi. U faqat o`zi bilan o`zi sirlashishga majbur. Aynan ana shu holatlar botiniy ichki kolliziyalar tabiatini namoyon qiladi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, konfliktning kolliziyali turi qahramonlarni g`oyat mushkul, o`ta murakkab holatlarga solib qo`yadi. Xususan, Saodat ana shunday vaziyatda o`zi bilan o`zi kurashib, to`lg`onadi. Adib uni bu taxlit mushkul sharoitga solayotgani yo`q. Qahramon o`zining nojo`ya xatti-harakati bilan,

hayotdagi o`tkinchi hoy-u havaslarga aldanishi, yanglish bosilgan qadami uchun “tovon” to`layapti. Ruhiiy poklanishga yuz tutgan qahramon ana shunday psixologik qiynoqlarni, iztiroblarni boshdan kechirishi tabiiy. Boisi, u o`zi tushgan og`ir vaziyatdan o`zi yo`l topib chiqishi lozim. Bu esa, azoblar, iztiroblar evaziga bo`ladi. Ana shunday murakkab vaziyatlar Saodatning psixologik kechinmalari misolida kuzatilganidek, qahramon ruhiyatida tuyg`ular kolliziyasini – konfliktning ichki, botiniy ko`rinishini vujudga keltiradi.

Adabiyotshunos M.Qo`shjonov konflikt haqida to`xtalib, “Konflikt shunday murakkab bo`lsinki, natijada kitobxon qahramon o`rniga o`zini qo`yib ko`rganda, nima qilishini bilmay qolsin”<sup>1</sup>, degan edi. Shu ma`noda Izzat Sulton “Oydin kecha asirligida” pyesasining qahramoni Saodat xarakteridagi murakkab kechinmalar tabiatini ko`rsatishga alohida urg`u beradi. Bosh qahramon xarakteri ataylab bo`rttirib tasvirlashga muhtoj emas. Saodatning qaynisi Obidjon kelinoyisining xatti-harakatlariga shubha bilan qaraydi, turli gap-so`zlar, telefon muammosi tufayli unga nisbatan ishonchini yo`qotadi. Bu vaziyat yosh yigitda nafaqat kelinoyisiga, balki barcha ayollarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini uyg`otadi. Ana shu ishonchsizlik bosh qahramon qalbidagi og`ir tebranishlarga – tuyg`ular kolliziyasiga olib keladi. Gegel bu xil konflikt ko`rinishining kelib chiqish sababini “bosh qahramon bartaraf etishi mumkin bo`lgan xatoga yo`l qo`yishi”<sup>2</sup>, deb ta`kidlasa, rus adabiyotshunosi V.Xalizev esa kolliziya “yashashning normal holatidir”<sup>3</sup>, deb biladi.

Ko`rinadiki, “Oydin kecha asirligida” pyesasida barcha alam va pushaymonlar birikib, konfliktning yana-da murakkab bo`lgan ko`rinishi – kechinmalarning ziddiyatli holatini keltirib chiqaradi. Qahramon nomus, vijdon azobiga chiday olmay, oxirgi ilinj sifatida o`limni tanlashgacha boradi. Saodatning taqdiri o`ta murakkabligi bilan halokatli yechimga moyil edi. Biroq dramaturg

---

<sup>1</sup> Қўшжонов М. Сайланма. ИИИ том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1982. – Б. 205.

<sup>2</sup> Гегел. Эстетика. Т.4. – М.: Искусство, 1973. – С. 676.

<sup>3</sup> Хализев В. Драма как явление искусства. – М., 1978. – С. 104.

tanlagan o'ziga xos yo'lga ko'ra, halokatning oldi olinadi – voqealar oqimi boshqacha tus oladi.

Izzat Sultonning estetik qarashlariga ko'ra, qahramonni jazolashdan ko'ra aybini yuvish, oqlash, kechirimli bo'lish inson uchun ham, jamiyat uchun ham ko'proq naf keltiradi. Zero, oila – muqaddas. Uni parchalamaslik lozim. Uni har qanday balo-yu ofatlardan asrash zarur. Bu, dramaturgning pyesada ilgari surayotgan oila va jamiyat, shaxs va oila masalalari xususidagi nuqtai nazari, ijtimoiy qarashi. Bu qarash pyesa voqealarining kechish tarzini butunlay o'zgartirib yuboradi. Dramaturgning shu qarash ta'siri bilan Obidjon yuragida kelinoyisi Saodatga nisbatan rahm-shafqat hissi uyg'onadi. Obidjonning o'zini o'limga hukm qilgan Saodatning maktubini o'qishi yosh yigit ruhiyatida o'zgarish sodir qila olganki, bunga boshqa sababni topish qiyin.

Ko'rinadiki, Izzat Sulton o'z badiiy niyatini – o'z oldiga qo'ygan maqsadini yuzaga chiqaradigan yechimga katta e'tibor qaratgan. Tomoshabin ana shu yechimga qarab, asardagi ma'naviy-axloqiy masalaning hal etilishi nechog'lik hayotiy, ishonarli ekanligiga baho beradi. Undan kelib chiqib, o'zi uchun muayyan xulosa chiqaradi.

Rus adibi A.P.Chexov ham pyesalari finaliga, badiiy yechimiga juda katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, kimda-kim o'z asarida yangi-yangi yakunlar kashf eta olsa, u dramaturgiyada yangi bosqich ocha bilgan bo'ladi.

Izzat Sultonning “Oydin kecha asirligida” dramasida davr uchun hayotuy bo'lgan konfliktni tanlay bilish bilan birga, o'ziga xos ajoyib yechimni ham topgan. Shuni ta'kidlash joizki, konfliktning boshqacha yechim yo'llari ham ijodiy tajribada ko'plab uchraydi. Ba'zan keskin to'qnashuvlarni ifoda etmagan, dramatismni yuzaga keltirmaydigan dramalarga ham duch kelamiz. Ularda ochiqdan-ochiq ikki kuchning kurashi ham mavjud emas. Qahramonlar o'z muxoliflarini bevosita “jang” maydoniga tortmaydilar. Bunday hollarda dramaturglar personajlar hayotidagi ziddiyatli yo'llardan, taqdiridagi ichki kechinmalardan kelib chiqadigan kolliziyalarni tasvir etishga e'tibor qaratadi. Izzat

Sulton “Yangi odamlar” dramasi­da konflikt yaratishda xuddi shunday usulga murojaat etgan.

Qahramonlararo konfliktning psixologik asoslarini kuchaytiradigan usullardan yana biri – *ig`vo* unsuridir. Ijodkorlarning ijodiy tajribasidan ma`lumki, juda ko`p asarlarda, ayniqsa, pyesalarda *ig`vo* unsuri keng qo`llanilgan. Bu unsure konfliktni ro`yobga chiqarishda, rivojlantirishda, qahramonlar faoliyatiga munosabat bildirishda, taqdir­larini hal qilishda dramaturglarga juda qo`l kelgan. V.Shekspirning “Otello” tragediyasida *ig`vo* qahramonlarni o`limga olib boradi. M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug`bek” tragediyasida esa *ig`vo* ajoyib inson, olijanob rafiqa Feruzaning boshiga ne-ne kulfatlarni solmaydi, deysiz.

Izzat Sulton “Yangi odamlar” dramasi­da *ig`vo* motividan o`rinli foydalanib, uni konfliktni yuzaga chiqarish uchun asosiy vosita sifatida qo`llagan, asar mag`ziga singdirib yuborgan. Azamat haqidagi *ig`vo* gaplardan Dilbarda o`zgarishlar sodir bo`ladi. Dilbardagi ikkilanish tufayli kolliziya ro`y beradi. Pyesadagi harakatga turtki beradigan kuch – psixologik kolliziya va insonning o`z-o`zi bilan olib borgan ichki kurashidir.

Izzat Sultonning “Oy­din kecha asirligida” dramasi­da sahnada ko`rinmaydigan Sobir obrazining yaratilishi dramatik kolliziyani yanada kuchaytiradi. Uni bo`layotgan voqea-hodisalarga ishtirok ettirish hamda boshqa personajlar bilan g`oyibona to`qnashtirish orqali ziddiyat tobora taranglashib boradi. Sobirning o`zi sahnada ko`rinmasa ham, uning qilmishlarini hikoya qilish yoki unga ishora qilish, qiliqlarini boshqa personajlar tilidan bayon etish yoki remarkalarda berish vositasida drama voqealari shiddatli tus oladi. Sobir ana shu taxlit faoliyati bilan drama konfliktini rivojiga ta`sir ko`rsatib turadi.

Badiiy asarda shunchaki qo`llanilgan detallar, mazmunsiz mayda striklar bo`lmasligiga Izzat Sultonning “Oy­din kecha asirligida” dramasi misolida yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Ular badiiy mantiq kuchi bilan asar voqealari tizimiga izchillik, hayotiylik, estetik ma`no bag`ishlaydi.

Demak, pyesada kuzatilganidek, dramatik kolliziyalar qahramonlar psixologiyasini yoritishda, voqealar dinamikasini belgilashda alohida o`ringa ega.

Narsa-predmetlarning (telefon, ig`vo va h.k. unsurlar) inson xarakteri bilan bog`iq jihatlari ham badiiy ma`noga ega. Dramaturg tabiat manzaralariga, buyumlarga ham badiiy vazifa yuklaydi. Xususan, personajlarning luqmalari, remarkalar ham kechinmalar izdihomini aks ettiradi. Ular qusqa va lo`nda tarzda o`z aksini topadi. Shu usul orqali xarakterlar qiyofasi, kechinmalar tabiati, tuyg`ular kolliziyasi mazmun-mohiyati bilan ochib beriladi.

Demak, konfliktning tuyg`u-kechinmalar kolliziyasi ma`naviy-axloqiy masalalarga keskin dramatik ruh bag`ishlagan. Dramaturg Izzat Sultonning badiiy olamiga yaqin mavzularga (sevgi, oila, shaxs va jamiyat singari) qayta-qayta murojaat etish, muayyan xarakter va qahramonlarni asarga qaytadan olib kirish, ularning fe`l-atvori va xarakter tabiatini dramatik vositalarda ochish, qahramonlarning nutqi, xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari talqinini berish orqali voqelikdagi muayyan jarayonlarni badiiy tahlil etadi. Shu tariqa asar qahramonlari ma`naviyati bugungi kun kushilarining ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog`lanadi.

“Oydin kecha asirligida” dramasida dramatismning kuchayishi, ruhiy holatning taranglashishi, nojo`ya harakatning – adashishning xunuk oqibatlari vijdon azobini chekayotgan bosh qahramon harakatlarida ko`rinadi. Qahramonning og`ir iztiroblari, chuqur ichki kechinmalari mahorat bilan berilgan. Qahramonning ichki iztiroblarini, ruhiy dramatismni sezib olish qiyin emas. Psixologik dramatism xarakterlarga xos individuallikni ta`minlash bilan birga, sahna asarining ta`sirchanligini oshirgan. Har bir personaj o`ziga xos g`oyaviy yukka ega. Ular faoliyati dramatik harakatning umumiy yo`nalishiga bog`lanib, davrni, xalqimiz hayotining muayyan qirralarini idrok etishga ko`maklashadi. Xususan, voqealar kechadigan kichik makon – Bahriniso kampirning xonadoni. Qahramonlarning asosiy qismi (Hoshimjon, Saodat, Obidjon, qizaloq, Habiba) shu oila bilan bog`liq. Abdurahim va O`rinboylar ham shu mahalla kishilari. Sobir obrazi esa sahnada ko`rinmaydigan birdan-bir begona personaj bo`lsa-da, drama voqealarini bog`lab turuvchi zanjirning asosiy xalqasidir.

Pyesa voqealari o`ziga xos psixologik holat tasviri bilan boshlanishi bejiz emas. Muallif insondagi imon tushunchasini xiyonatga undovchi oydin kechaga qarama-qarshi qo`yadi. Muhabbat, intizorlik va sog`inish hislari bilan to`la “Sen bo`lmasang yonimda” mashhur qo`shig`i ham Saodatning ruhiy holatini teranroq ochishga xizmat qiladi. Mana shunday ichki tuyg`ular kurashi jarayonida o`zbek ayoliga xos iffat, sharm-hayo g`uborlangan bo`lsa-da, g`olib keladi. Yolg`izligi, mehrga zorligi tufayli begona erkakka ko`ngil bergan Saodat endilikda o`z xatolarini anglab yetadi. Shaytoniy mayllar ustidan ruhan g`alaba qozonadi.

Asarning intim holat tasviri bilan boshlanishidan uning maishiy mavzuda ekanligini anglash qiyin emas. Biroq pyesa davomida Saodat yo`l qo`ygan mudhish xatoning ijtimoiy sabablari ochila boradi. Saodatning turmush o`rtog`i Hoshimjon – xalq boshiga balo-qazodek yopirilgan “Paxta ishi”ning beayb qurbonlaridan. Muallif Saodatning “qilmish”iga oila a`zolarining, mahalla ahlining munosabatlarini ko`rsatish orqali qahramonlar ma`naviy olamiga kirib boradi. Chunonchi, Saodatning qaynonasi Bahriniso kelinini doimo himoya qiladi. Hech kimning gapiga ishonmaydi. Shubha-gumonlarga berilmaydi. Hatto, bu to`g`rida bor haqiqatni Hoshimjonga aytmoqchi bo`lgan kichik o`g`li Obidjonni “oq” qilmoqchi bo`ladi. Uning Saodat borasidagi xulosasi bitta, u ham bo`lsa, “Mening kelinim qandek oppoq, musaffo! Ha!”<sup>1</sup>

Shu oilaning ikkinchi a`zosi Obidjon esa, Saodatni yuz foiz gunohkor, deb hisoblaydi. Bolasini tirik yetim qilib bo`lsa ham, kelinoyisining xiyonatidan ogoh etmoqchi, bu bilan akasini, qolaversa, butun oilasi sha`nini himoya qilmoqchi bo`ladi. Bunda hech ikkilanish sezilmaydi. Biroq psixologik kechinmalar Obidjonni ham ikkilanishlar girdobiga solib qo`yadi.

To`g`ri, mahalladoshi O`rinboy o`zining or-nomusga oid gaplari bilan Obidjonning izzat-nafsiga tegadi. “...Bu voqeadan xabardor etish – sening akang oldidagi burching. Sen ukalik burchingni bajarishing shart”<sup>2</sup>, deydi u va

---

<sup>1</sup> Иззат Султон. Ойдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – №2. – Б. 31.

<sup>2</sup> Ўша манба. – Б. 30.

Obidjonning bu to`g`ridagi qarorini qat`iylashtiradi. Ammo dunyoda muhabbat degan oliy his borligini, u odamni har qanday qat`iy qarordan ham qaytara olishi mumkinligini muallif Obidjon va uning sevgilisi Habiba dialoglari orqali ko`rsatadi. Shu tariqa Obidjonda ikkilanish, ko`nglida ichki kurash paydo bo`ladi.

Bahrinisoning baxtiga mahallada ayol qalbini tushunadigan, har qanday voqeaga vazminlik bilan yondashadigan Abdurahim singari kishilar ham bor. Abdurahim – butun vujudi bilan Hoshimjonning oilasi buzilmasligi, farzandining yetim bo`lib qolmasligi tarafdori. U shunday fikrlari bilan Bahrinisoga maslakdosh. Shuning uchun ham u O`rinboyga: “...Hoshimjonning oilasini buzsang, men seni masjid ahli oldida fosh qilaman! Badnom bo`lasan!”<sup>1</sup>, deydi.

Dramadagi voqealar drammatizmi Hoshimjon qamoqdan qaytgandan keyin yanada taranglashadi. Obidjon akasiga bo`lib o`tgan voqealarni aytish uchun og`iz juftlaganda kitobxon yoki tomoshabin biror fojining yuz berishini, tragik holatning boshlanishini kutadi. Ammo dramaturg voqeani shu yerda shartta kesib, boshqa hayotiy lavha tasviriga ko`chadi. Shunga qaramay, Obidjonning ruhiy olamida ro`y berayotgan ziddiyatlar kurashi susaymaydi. Obidjon o`ziga-o`zi: “ne balolig` kunga qoldim-a! Aytsam tilim kuyadi, aytmasam – dilim!”<sup>2</sup>, deydi.

Bu orada Sobir telefon qo`ng`irog`i orqali oila xotirjamligini buzib turadi. Obidjonning qarori qat`iylashadi. Saodat vijdon azobi oldida dosh bera olmay, o`zini o`ldirishga mahkum etadi. Ushbu holat voqealar oqimini butunlay boshqa yoqqa yo`naltirib yuboradi. Saodatning asosiy raqibi bo`lgan Obidjonning yuragida rahm-shafqat hissi uyg`onadi. Oilaning boshqa a`zolari ham Saodatning oila bag`rida qolishini sidqidildan istaydilar. Shunga harakat qiladilar. Natijada oila a`zolari, jamiyat tomonidan ko`rsatilgan xayrixohlik Saodatni o`limdan, bir yosh oilani esa buzilishdan saqlab qoladi.

---

<sup>2</sup>Иззат Султон. Ойдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – №2. – Б. 31.

<sup>3</sup> Ўша манба. – Б. 34.



Oilaviy hayotda har qanday voqealar sodir bo`lishi mumkin. Lekin har qanday vaziyatda ham oilani saqlab qolish kerak. Agar buning iloji bo`lmasa, ajralishga to`g`ri kelsa, shunda ham farzandlar jabr chekmasligi, kelajak avlodlarga ziyon yetmasligi zarur. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, “Biz o`z ma`naviy hayotimiz va kelajagimizni qurayotganda beqiyos milliy qadriyatlarimiz bo`lmish oilani asosiy tayanch deb bilamiz. Chunki o`zligimizga qaytish, milliy urf-odatlarimizni e`zozlash, kattalarga hurmat va kichiklarga g`amxo`rlik, odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi”<sup>1</sup>.

Yuqorudagi fikrlarga hamohang tarzda Izzat Sulton ham asarda bag`rikeng bo`lish, kishilar bilan murosa-yu madora qilish lozim, degan g`oyani ilgari suradi.

Xullas, “Oydin kecha asirligida” dramasi, bir tomondan, ayol qalbining tahlili asosida chuqur psixologik holatlarni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, millatning ijtimoiy hayotida ro`y berayotgan evrilishlarni haqqoniy tasvirlaydi. Uning oqibatlarini ochib beradi. Muallif foydalangan bu badiiy usul milliy dramaturgiyadagi yangicha badiiy-psixologik talqin ko`rinishidir. Chigal insoniy munosabatlar haqida bahs yurituvchi mazkur pyesa inson hayoti, qalbi naqadar murakkab, sir-sinoatga boy ekan, uni anglash, tushunish va qadrlash ham aslida o`ziga xos ilm, yuksak san`at ekanini yana bir bora bizga eslatishi, bizni jiddiy o`y-mushohadalarga undashi bilan qimmatlidir.

Asar o`zining badiiy yechimi bilan, hayotda yanglishmaslikka, qiyinchiliklarni matonat bilan yengishga, hushyor, samimiy, pok qalbli inson bo`lishga undashi bilan zamondoshlarimizga ibrat bo`la oladi. Zero, adashganlarning qismati ham odamzodni yashashga o`rgatadi, o`z qadrini saqlashga, sha`nini ulug`lashga, kurashib yashashga undaydi.

Izzat Sulton talqinidagi konfliktning botiniy mazmundorligi, tuyg`u-kechinmalar kolliziyasi asardagi psixologik tahlil teranligini ta`minlashga

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Адолатли жамият сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 130.

qaratilgan. Real hayotiy ziddiyatlarni, badiiy niyatni konfliktning ichki ko`rinishi – qalb drammatizmi vositasida ifodalash dramaturgning “Ko`rmayin bosdim tikanni” asarida ham qo`llanilgan.

“Ko`rmayin bosdim tikanni” dramasida ham keng jamoatchilik diqqat-e`tiborida bo`lgan oila muammosi o`rtaga tashlanadi. Pyesa sujeti oddiy, ishtirokchilari bor-yo`g`i uch kishi: bir ayol va ikki erkak.

Gulchehra va Shokir risoladagidek oila qurishgan. Hayotlari tinch-totuv, ammo o`rtalarida muhabbat yo`q. Ittifoqo, kurortga borgan ayol Sobir ismli o`zi tengi o`rta yoshlardagi erkak bilan tanishib, uni sevib qoladi. Bu o`tkinchi, muvaqqat mayl emas edi. Aksincha, uzoq yillar unitilgan va balki, kutilgan samimiy tuyg`u edi. Shu tariqa oilaviy burch va muhabbat tuyg`ulari o`rtasida psixologik ziddiyat, kurash boshlanadi. Shaxs erki masalasi birinchi planga chiqadi; tuyg`ular, muhabbat erki masalalari badiiy mushohadaga tortiladi.

Gulchehra zamonaviy ayol bo`lgani uchun muhabbatli nikoh va turmushni xohlaydi. Sobir bilan uchrashuv unda muhabbat tuyg`usini uyg`otadi. Natijada oila oldidagi burch emas, muhabbat g`alaba qozonadi. U jamiyatning yuksak axloqiy g`oyalari bilan yashovchi ongli a`zosi, shu ruhda tarbiyalangan shaxs sifatida o`z burchini – vijdoniy poklik burchini his etadi. Shuning uchun bora-bora sarobga aylanishi mumkin bo`lgan muhabbatsiz turmushdan voz kechadi; sevgan kishisi bilan ham topishmay, o`zini baxtsizlikka mahkum etadi. Holbuki, Gulchehra baxtli bo`lishga haqli edi. Shokir ham buni tushunadi, johillik qilmaydi. Shu tariqa muallif “burch bilan tuyg`u o`rtasidagi ziddiyat”da “ijtimoiy hayot bilan shaxsiy hayot o`rtasidagi uzilish”ni ems, bog`liqlikni mantiqan isbot etadi.

Ko`rinadiki, har bir asarda konfliktning tuyg`ular kolliziyasidan iborat turi hayot materialining xarakteriga, unga nisbatan muallifning estetik munosabatiga, asarda ko`zda tutilgan badiiy maqsadga ko`ra turlicha bo`lishi mumkin. “Oydin kecha asirligida” dramasida kuzatilganidek, qahramonlar (Saodat, Bahriniso, Hoshimjon)ning ko`nglida kechgan kechinmalar ziddiyati, ong-shuurini o`rtagan o`y-mushohadalar kurashi psixologik tasvir qanchalik keng imkoniyatlarga ega

ekanligini ko`rsatadi. Voqelikni, qahramonlar ruhiyatini badiiy idrok va ifoda etishning hayotiyligini, haqqoniyligini, tabiiyligini asoslaydi.

## **2.2. Izzat Sulton dramalarida psixologik tasvir va ma`naviy-axloqiy muammolar ifodasi**

Ma'lumki, Izzat Sultonning sahna asarlarida inson kamoli, uning ma'naviy-axloqiy pokligi muhim muammo sifatida o`rtaga qo`yiladi. "Imon", "Ko`rmayin bosdim tikanni", "Kumush shahar malikasi", "Donishmandning yoshligi", "Abdulla Qodiriyning o`tgan kunlari", "Oydin kecha asirligida", "Yangi odamlar" kabi asarlaridagi ma'naviy-axloqiy muammolar rangin qirralari bilan adib iste'dodini namoyish qiladi.

Dramaturg Izzat Sulton ijodida ma'naviy-axloqiy muammolar xilma-xil ko`rinishga ega bo`lib, avvalo, imon, vijdon, burch va mas'uliyat tushunchalari orqali o`z ifodasini topadi. Vijdon pokdomonligi bilan imon butunligi, dramaturg talqiniga ko`ra, shaxs tabiatidagi insoniylikning, ruhiy kamolotning asosiy mezonlaridan biri deb qaraladi. Garchand Izzat Sulton "Imon" dramasi bilan oltmishinchi yillardayoq bu mavzuni maromiga yetkazib tasvirlagan bo`lsa-da, keyingi yillar ijodiy izlanishlarida ham uning yangi-yangi talqinlari davom etdi.

XX asrning 80-90-yillari dramaturgiyasida vijdon pokizaligi va imon butunligi muammosi, ma'naviy pokdomonlik uchun kurash ko`pchilik dramaturglar tomonidan badiiy-estetik idrok va ifoda etildi. Dramaturg Uchqun Nazarov "Oyna" asarida 80-yillar so`ngidagi shaxs va jamiyat psixologiyasida uyg`ona boshlagan poklanishni ko`rsatish orqali ma'naviyatimizni sog`lomlashtirishga da'vat qildi. Shuningdek, O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz", "Komissiya", Mashrab Boboyevning "O'ttiz yoshlilar", "Gurung", "Yer tomiri" kabi sahna asarlarida ham mazkur muammo o`z badiiy ifodasini topdi.

Xususan, Mashrab Boboyev mazkur muammoni asar qahramonlarining o`zaro hazil-mutoyibasi, hajv-kulgusi asosida talqin etdi va shu tariqa dramaga komiklik bag`ishladi.

Sharof Boshbekovning “Taqdir eshigi”, “Tikansiz tipratikanlar”, “Temir xotin”, “Eski shahar gavroshlari”, “Tushov uzgan tulporlar” kabi bir qator pyesalarini kuzatsak, ularda “kinoyali uslub yoki majoziy uslub” yetakchilik qiladi. Izzat Sulton dramalarida esa dramatik ruh to`la saqlanadi; xarakter va konflikt ham og`ir-bosiq, o`ziga xos salobat bilan harakatga keladi. Ba`zan konflikt xarakterlararo kurash tarzida namoyon bo`lsa, ba`zan esa ichki, ruhiy drama – kechinmalar kolliziyasi ko`rinishida ifoda etiladi. Shu tariqa dramaga chuqur emotsional-psixologik ma`no bag`ishlanadi. Vijdonli kishilarning ko`pligi hayotga osoyishtalik, farovonlik va go`zallik baxsh etganidek, vijdonsiz shaxslarning ko`payib ketishi har xil fojialarga, jinoyat va xiyonatga yetaklaydi. Odam odamga mehribon, oqibatli, vafodor va sadoqatli bo`lish o`rniga bir-birini g`ajishga, vahshiylikka kirishadi. Shuning uchun jamiyat oldidagi insoniy burch masalasining badiiy talqinini o`rganish va u haqdagi xulosalarni umumlashtirish ham ilmiy, ham tarbiyaviy jihatdan muhimdir.

Ma`lumki, ma`naviy-axloqiy tushuncha haqida fikr yuritganda, dastavval, imon, vijdon, burch, e`tiqod, sadoqat, muhabbat va odamiylik kabi sifatlarni sanaymiz. Ushbu tushunchalar silsilasida mehr ham imon, insof, diyonat, vijdon kabi jamiyatni tutib turadigan muhim omilga aylangan. Zero, ma`nan go`zal kishilar barcha insoniy fazilatlarni o`z shaxsiyatiga singdirgan holda o`zgalar tabiatiga ham “yuqtiradilar”. Shu holatni chuqur anglagan Izzat Sulton dramatik asarlarida buni bosh maqsad qilib oladi.

“Yangi odamlar” dramasida zamondosh obrazini yaratar ekan, Azamat obrazi orqali ma`naviy-axloqiy masalalarga asosiy urg`u beradi. Zero, go`zal axloq va odamiylik chinakam qahramonlik asosini belgilaydi. Odamlar tabiatidagi yuksak insoniylik, ma`naviy yetuklik mezoni sifatida kishida vatanga muhabbat, or-nomus, fidoiylik tuyg`ularini tarbiyalaydi. Ma`nan yetuk inson esa barcha ezgu ishlarni o`z burchi deb biladi, bunga qalb amri, ruhiy ehtiyoj sifatida qaraydi. Ba`zan oddiy dehqon, bog`bon va hunarmandning himmati, sahovati kishini lol qoldiradi. Holbuki, behisob dunyosi bo`la turib, qurumsoq, xasis va nazari past kimsalar qanchadan-qancha. Bundaylar avval ham bo`lgan, hozir ham oramizda

topiladi. Himmat tufayli yangi shaharlar bunyod etiladi, kanallar qaziladi. Bir kishining himmati bilan el-yurtda ne-ne ulug` zafarlar qo`lga kiritilishi mumkin. Himmat odamni olijanob qiladi, ulug` ishlarga safarbar etadi. Bunday odamlar eng qiyin vaziyatlarda ko`kragini qalqon qilib, el-yurtni himoya qila oladi. Bunday jo`mard odamlar qalbida hamiyat, nomus kuchli bo`ladi, ular yaratish, bunoshqalarni baxtiyor etishdan ortiq baxt yo`q, deb biladilar.

Ijtimoiy hayotda tub islohotlar amalga oshirilayotgan, jamiyat oldiga ma`nan sog`lom avlodni shakllantirishdek mas`uliyatli vazifalar ko`ndalang qo`yilgan bugungi kunda ijodkorlarimiz shaxs ma`naviyatini go`zallashtirishga, oilalardagi sog`lom muhitni shakllantirishga oid dramatik asarlar yaratishmoqda. Xususan, sahna asarlarda tadbirkor, ishbilarmon kishilar obrazini yaratish borasidagi sa`y-harakatlarni amalga oshirgan Izzat Sulton, Odil Yoqubov, Usmon Azim singari ijodkorlarimizni ko`rsatishimiz joiz.

Zamondoshlarimizning oila, sevgi masalalariga munosabati Izzat Sultonning “Oydin kecha asirligida”, “Yangi odamlar” dramalari qahramonlari obrazida o`z ifodasini topgan. Qahramonlar xarakterida ko`zga tashlangan muhim masalalardan yana biri oila, sevgi munosabatlarning boy ijtimoiy mazmun kasb etganligidir. Bugungi qahramonlar sevgi masalasida “bir ko`rishdayoq oshiq-u beqaror” bo`lavermaydi. Yoki, yigitni odatdagidek qizning “sarv qaddi-basti, kamon qoshlari”, qizni esa yigitning “shamshoddek bo`yi-basti”, “qarchig`ay ko`zlari” singari zohiriy jozibalari maftun qilavermaydi. Sevishganlar bir-birlarini insoniy sifatlari, hayotga qarashlari, o`y-rejalari, ma`naviy boyliklariga qarab tanlaydilar.

“Oydin kecha asirligida” dramasi markazida ayol obrazi turadi. Erini sevib turmush qurgan esli-hushli, pokiza ayolning to`g`ri yo`ldan toyishi, o`zga mayllarga berilishi xunuk hol. Bu narsa drama personajlaridan Abdurahim boboning dilini vayron qiladi. U qalbini qon qilgan savolga javob qidiradi: “Aql-u hushli, tuppa-tuzuk, pokiza kelining Saodat qanday qilib qoqindi, to`g`ri yo`ldan toyildi-yu, yetti yot erkakning izhori muhabbatiga uchdi?”<sup>1</sup>. Bu savolga asarda javob berilgan bo`lsa-da, uning ijtimoiy sabablarini topishga harakat qilamiz.

---

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Oйдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – №2. – Б. 26.

Saodatning o'zga mayllarga berilishining shaxsiy va ijtimoiy sabablari shundan iboratki, ma'lum bir vaziyatda Hoshimjon shaxsi bir tomonlama, asosan, mehnat jarayonida kuzatiladi. Shaxsiy hayoti, yaqinlariga mehr-muhabbati, oila oldidagi burchi Hoshimjon e'tiboridan ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Shu tariqa shaxs faoliyatining uyg'unligi buzilib, oxir-oqibat ko'ngilsiz holatlarga olib keladi. Bu hodisaning hozirgi turmushdagi ildizlarini sotsiolog, iqtisodchi olimlar atroflicha yoritib o'tishgan. Gap shundaki, g'ayriilmiy iqtisodiy siyosat dehqonni og'ir mehnatga muhtalo etgan edi. Oqibat, u faqatgina iqtisodiy jihatdan qashshoqlashib, jismonan ojizlanib qolmay, ayni zamonda nokomillikka ham yuz tutadi.

Bu xildagi manzara, ya'ni shaxsning disgarmonik holatlarga tushish jarayonlarini badiiy tadqiq etish faqat dramaturgiya janridagina ko'zga tashlanmaydi. Umuman, bu hodisa adabiyotimizda sodir bo'layotgan hayotga axloqiy-estetik munosabatning o'ziga xos natijasi sifatida baholanmog'i kerak. Mazkur mayl adabiyotning boshqa janrlarida ham kuzatiladi. Masalan, Omon Matchonning "Gaplashadigan vaqtlar" she'riy qissasi qahramonlari tasvirida ham, Odil Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" romanidagi Shorahim shovvoz hayotidagi sinovlarda ham shunga o'xshash voqealar mavjud. Ana shu jihatlari bilan bu asarlarni adabiyotimizdagi yetakchi an'analarga uyg'un holda dramatik asarlar bilan qiyoslash o'rinli.

Omon Matchonning "Gaplashadigan vaqtlar" she'riy qissasi bosh qahramoni – yosh mutaxassis Anvar hayotga benihoya faol munosabatda bo'ladi. O'zicha nimalar bilandir band, nimalarnidir ixtiro qiladi, izlanadi, tinib-tinchimaydi. Qisqasi, u to'la ravishda hayot oqimiga tushib olgan, o'z fikr va qarashlariga ega yoshlardan. Ammo Anvarning dunyoqarashi, yashash tarzi bilan ijtimoiy muhit mos emas, uning barcha xatti-harakatlariga, xarakteriga turmushda uchrab turadigan biryoqlamaliklar to'g'ri kelavermaydi. U hayotda o'z o'rnini topish uchun butun fikri-zikrini mehr qo'ygan ishiga bag'ishlaydi. Shu tufayli ham "Oq

---

qushlar, oppoq qushlar” dagi Shorahim singari o`z mashg`uloti bilan band bo`lib, yaqinlarini, xususan, umr yo`ldoshi Ra`noni unutadi<sup>1</sup>.

“Oq qushlar, oppoq qushlar” romanida Oysuluv Shorahimga hech qanday e`tiroz bildirmaydi; shu maylda biron afsus-nadomatini sezdirmaydi<sup>2</sup>. “Gaplashadigan vaqtlar” da esa xuddi shu vaziyatga tushgan Ra`no Anvarga nisbatan qattiq isyon ko`taradi. “Oydin kecha asirligida” dramasi qahramoni Saodat erining e`tiborsizligidan kuyib yurishi, baxtsizlik iztirobini tortishi, shunday vaziyatlarda o`zga mayllarga berilib, xiyonat yo`liga kirganligi, keyinchalik bir umr vijdon azobida qiynalishi ifodalanadi.

Odil Yoqubovning “Oq qushlar, oppoq qushlar” romanidagi nomutanosiblik ko`proq Shorahim shovvozning jamoat ishiga mukkasidan ketganligi-yu, shaxsiy hayotiga, oilasiga e`tiborsizligi bilan bog`liq bo`lsa, Omon Matchonning “Gaplashadigan vaqtlar” qissasida yaqin o`tmishdagi zamon va ayrim shaxslar yaratgan ziddiyatlar, zo`ravonliklarga daxldor hodisa deb qaraladi. Izzat Sulon “Oydin kecha asirligida” dramasida bu vaziyatga drama personajlari tili bilan baho berishga harakat qiladi:

“**Bahriniso:** ...Afsuski, yurtimiz boshiga qaro kunlar tushib, “Paxta ishi” degan kasofat chiqib, o`n minglab, yigirma minglab begunoh kishilar bo`hton bilan sud qilinganda, mening o`g`lim hamma narsani unutdi. Saodatni ham xayolidan chiqardi, oylar mobaynida xotiniga beparvo bo`ldi. Kelinim esa, “erim meni sevmas ekan”, deb kuyib yurdi. Eridan sovidi. Baxtsizlik iztirobini tortdi”<sup>3</sup>.

Saodat obrazi ilgari yaratilgan shu tipdagi qahramonlardan jiddiy farq qiladi. To`g`ri, ilgari ham voqelikdagi nuqsonlar yoritilgan qator sahna asarlari mavjud edi. Ammo Izzat Sulon bosh qahramonning qilmishini fosh qilib, tanqid ostiga olmaydi. Balki uning qaltis vaziyatlardagi ruhiy olamini ochishga harakat qiladi.

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Омон Матжон. Гаплашадиган вақтлар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

<sup>2</sup> Ёқубов О. Оқ қушлар, оппоқ қушлар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

<sup>3</sup> Иzzат Султон. Ойдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – №2. – Б. 26.

Dramaturg har bir muammoning ildizini topishga, sabablarini aniqlashga, vaziyatga to'g'ri baho berishga, oqilona xulosa chiqarib, chora-tadbirlar ko'rishga kitobxon va tomoshabin e'tiborini qaratadi. Shuni aytish joizki, Saodat insoniy fazilatlardan batamom ayrilib qolgan emas. Unda hali-hanuz ma'naviy kamolotning, pokdomonlikning o'zagi hisoblanadigan sharm-hayo, uyat tuyg'usi kuchli. Dramaturg asarda mana shu muammoni qandaydir nozik, kundalik turmushimizdagi bir hodisa sifatida talqin qilishga intiladi. U insoniy tafakkur qudratidagi o'ziga xos toblanishlarni ana shu muammoni yoritish bilan uzviy bog'liqlikda ifodalaydi.

“Oydin kecha asirligida” dramasi qahramoni hayotida katta, unutib bo'lmaydigan xatoga yo'l qo'ygan. Saodat adashgan. U o'zining qilmishlaridan iztirob chekadi. O'ylamay bosilgan noto'g'ri qadam uni bir umr azoblaydi. Shunday paytlarda bundan buyon bu tarzda yashash mumkin emasligiga tobora ishonch hosil qila boradi.

Saodat qalbini iztirobga solgan boshqa yana bir sabab bor. U Saodatning bir mahallar otashin sevgiga oshno bo'lgan qalbidir. Bu qalb chin sevgi o'tidan yolqinlanib ko'rgan, sevgi lazzati qisqa muddatga bo'lsa-da, bu qalbgaga nasib etgan. Saodatni ana shu qalb ham qiynaydi: “Xatlar! Xatlar! Tabarruk xatlar! Menga hayot bilan xayrlashish oson-u, sizlar bilan vidolashish mushkul!” deya Hoshimjondan kelgan xatlar haqidagi devonavor so'zlaridan uning bir mahallardagi oshiqona kechgan damlar yodi, sog'inchi bilan yashayotganligini sezamiz.

Bu o'rinda Saodat Sobir bilan bemalol yashab ketsa ham bo'lar edi, degan mulohazaga borish ham mumkin. Ammo, bizningcha, bu – sevgi masalasiga bir yoqlama qarash bo'lardi. Zero, Saodat ma'naviy go'zalligini yo'qotgan emas. U oila, sevgi tushunchalarini ko'ngil maylidan, tuyg'udan tashqarida tasavvur eta olmaydi. Saodat sevgini faqat bir ma'noda, ya'ni muqaddas, deb tushunadi. Uning uchun sevgi tushunchasi bir-biriga qarama-qarshi ikki mazmunga ega: sevgining asl ma'nosi bilan uning yana niqoblangan, shaytoniy mayllarga berilgan soxta ko'rinishi ham mavjud. Saodat asl sevgini tan oladi. Sevgining bu ko'rinishi



Saodat bilan Hoshimjon o`rtasidagi mavjud munosabatlarda namoyon bo`ladi. Muhabbat, bu shaxsiy kechinmalar yig`indisidan iborat bir mayl emas. Aksincha, u oila va jamiyatning ma`naviy-axloqiy asoslarini tayin etadi. Individual shaxslarning ma`naviy komillik belgilari jamiyatning ham axloqiy ustunlarini belgilab beradi. Ana shu xususiyatlariga ko`ra, u hamisha ijtimoiy mazmunga ega hisoblanadi.

Insoniy burch, vijdon ham muhabbat singari so`z san`atining boqiy mavzularidan sanaladi. Har bir davr unga yangicha munosabatda bo`ladi. O`ziga xos ma`naviy-axloqiy mezonlar bilan baholashni taqozo etadi. Shu ma`noda har bir ijodkor unga o`zicha yondashadi. Burch muammosi bilan bog`liq ravishda davrning muhim ijtimoiy, ma`naviy-axloqiy muammolarini ko`ndalang qo`yishga, kishilarning ko`ngil dardlarini izhor etishga, Lev Tolstoy ta`biri bilan aytganda, inson qalbi haqidagi haqiqatlarni ochishga qaratilgan taqdirdagina u chinakam badiiyat mulkiga aylanadi. Adib Chingiz Aytmatov: “Hayot haqiqati kitobxonlarni ovutadigan ertak emas, balki ularning ko`zlarini ochib qo`yadigan achchiq, shafqatsiz saboqdir... jamiyat ham kishilar taqdiri uchun javobgardir, odamning tuban ketishiga muayyan shart-sharoit ta`sir ko`rsatadi. Ijodkor esa bunga befarq qarashi mumkin emas”<sup>1</sup>, deganida ming bor haqdir.

Shaxs o`zligini anglay borishi jarayonida shu qadar murakkab, chigal va nozik muammolarga duch keladiki, ba`zan ularni eng yaqin sirdoshi bilan ham baham ko`ra olmaydi. U haqda faqat o`zi, vijdoni, imoni bilan bamaslahat hukm chiqaradi. Goho esa, bir qarorga kela olmay, mulohazalar girdobiga g`arq bo`ladi. Ana shunday ma`naviy-axloqiy masalalardan yana biri nomus va oriyatga daxldordir. Ularni o`ylaganing sari boshi berk ko`chaga kirib qolaverasan. O`z yog`ingga o`zing qovrilaverasan. Vijdon ta`qibidan qutula olmaysan.

“Oydin kecha asirligida” dramasida ruhan poklanishga yuz tutgan Saodat qalbida sodir bo`layotgan evrilishlar, o`zgarishlar yoritiladi. Asar voqealari uch obraz mehvariga mujassamlashtirilgan: Saodat, Obidjon, Bahriniso. Dramaturg

---

<sup>1</sup> Айтматов Ч. Многонациональный роман. – М., 1985. – С. 182.

mazkur uchburchak doirasida bugungi kun voqealarini chuqur tahlil etadi. Uch qahramon dunyoqarashini, ularning hayotiy-axloqiy qarashlarini, xatti-harakatlarini bir nuqtaga jamlab, yaxlit hayot materiali sifatida aks ettiradi. Uch qahramon xarakterining zohir bo`lishida ijtimoiy muhitning ta`siri katta. Ularning vijdon, to`g`rilik, or-nomus tushunchalariga munosabatlari asarning ijtimoiy ma`nosini, axloqiy konsepsiyasini yoritib beradigan ustuvor yo`nalishni tashkil qiladi. Dramadagi zamon nafasi qahramonlarning o`zaro munosabatlaridan, ziddiyat va hayotiy detallardan sizib chiqadi. Zero, ijtimoiy turmush afzalliklarining o`zi shaxsning ma`naviy kamoloti uchun yetarli emas.

Keyingi yillar o`zbek sahna madaniyatiga nazar tashlasak, adabiyotning barcha turlari qatori drama turida ham insonning ruhiy olamiga kirib borish, qalbning nozik tomonlarini ochish, qisqasi, psixologik dramalar yaratishga katta ahamiyat berildi. Sahna asarlaridagi psixologik tasvirning haqqoniy ifodalanishi qahramon ishtirok etayotgan muhitga, dramatik vaziyatga bog`liqdir. Dramada qahramonlar faoliyati, xatti-harakati orqali ruhiyati, kechinmalari tomoshabin ko`zi o`ngida suratlana boradi. “Oydin kecha asirligida” dramasida bosh qahramonning psixologik holati ishonarli tasvirlab berilgan. Chunki dramaturg qahramon psixologik holatga kirishi uchun zarur bo`lgan muhitni yarata olgan:

“**Saodat** (ovozi)... men endi sening asiring emasman! Men yengdim! Ey, oydin kecha, men endi sen bilgan u Saodat emasman! Men endi qilmishidan pushaymon, tavbasiga tayangan Saodatman!..”<sup>1</sup>

Qahramonning bu monologi orqali asar voqealari boshlanmasdanoq qandaydir tashqi harakat ro`y bergandek va ichki harakat qahramon dardlari orqali jonlanganday ko`rinadi. Bu ichki harakat nimalarda ko`rinadi? Adashgan, gunohga botgan ayolning ichki kechinmalari, iztiroblari, qayg`u-alamlari, orzu-o`ylari izhor etilishi bilan uning ko`ngil izhori ochila boradi. Ichki harakat ana shu ruhiy dialektikada namoyon bo`ladi. Dramaturg qahramonning botiniy dunyosini o`rganish, insonning beqaror ruhiyati iqlimlarini kashf etish, insonning dil

---

<sup>1</sup> Иззат Султон. Ойдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – №2. – Б. 28.

qatlamlariga “sayohat” qirralarini ochish orqali tipik badiiy xarakter yaratish yo`lidan borgan.

Inson yuragiga quloq tutilsa, uni darhol tushunib olish qiyin. Odamni yaxshi va yomonga chiqarish oson ish emas. Darhaqiqat, har to`kida bir ayb deganlaridek, har yaxshida bir yomonlik, har yomonda bir yaxshilik fazilatlar mavjud. Ular doimiy va beqaror, o`zaro bir-biriga singishgan yoki ayrim holatlarda o`zligini namoyon etishi mumkin. Shu jihatdan, adabiyotda uzoq hukm surib kelgan obrazlarning ijobiy va salbiy toifalarga bo`linishiga asoslangan badiiy qurilma, haligacha insonni to`la-to`kis, mukammal tahlil etishga erishganicha yo`q. Insonning fe`li-faoliyati uning ichki dunyosi bilan uyg`undir. Chunonchi, tashqi faoliyat inson ruhiy dunyosi orqali boshqariladi. Inson ongi uning barcha faoliyati – xatti-harakat, qiliq va odatlari – barchasini birday boshqarib turadi, salbiy hislarni jamiyatda qabul qilingan me`yorning yashirin buzilishi, insondagi asliy sifatlarning namoyon bo`lishi undagi musbat va manfiy alomatlarining tabiiy zuhur bo`lishidan dalolat beradi.

Saodatning murakkab ruhiy holatni boshdan kechirayotganligini quyidagi dialogdan ko`rishimiz mumkin:

**“Saodat.** ...hayotim oshiga zahar tushgan.

**Habiba.** So`zlaringiz bir-biridan sirli.

**Saodat.** Oilaviy hayot sirlarga to`la...

**Habiba.** Sobir? Sobir deganingiz kim?

**Saodat.** Shoshma singlim, sabr qil. Vaqti-soati kelib, sen mening butun hayotim dostonini, fojiali sarguzashtimni eshitasan...

**Habiba** (telefonga ishora qilib). Sobirning sizga aytadigan gapi ko`p ekan.

**Saodat** (butun qalbdan). Sobir mening sharmanda-yu sharmisor o`tmishim! Sobir mening tupurgan tupugim. Men uni og`zimga olmayman! Hech qachon!”<sup>1</sup>

Saodatning chuqur iztirobga to`la so`zlariga ahamiyat beraylik: “Singlim! Hech qachon birinchi muhabbatingga hiyonat etma! Ha, hech qachon eringga

---

<sup>1</sup> Иззат Султон. Ойдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – №2. – Б. 34.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

<sup>3</sup> Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. – Б. 29.

bevafolik qilma! Hech qachon hiyonat yo`liga kirma! Na amalda, na fikran eringga hiyonat qilsang, bu gunohingni sen hech qachon unutmaysan. Boshqalar unutmagan ham sen o`zing unutmaysan! Hech qachon! Umrbod shu gunohing ko`lankasi boshing ustida turadi, xuddi qora bulut kabi. Bu bulutdan hayotbaxsh yomg`ir emas, uyat va g`am-g`ussa yog`adi. Ha, faqat uyat va g`am-g`ussa! Sevganing ko`zlariga tik qarash huzuridan seni mahrum etadigan uyat! Odamlar orasida boshingni ko`tarib yurishga qo`ymaydigan g`am-g`ussa! Vijdon azobida qolasan! Buning ustiga g`iybat natijasida ering oldida sharmanda bo`lishing muqarrar ekanini o`ylasang, vijdon azobi ham do`zax azobiga aylanadi! O`lib ketmaganingga afsus qilasan!”<sup>1</sup>

Bu so`zlar qahramon ruhiyatida dramaga asos soluvchi ichki ziddiyat hukmron ekanligini, u ichki iztirob girdobiga tortilib ketganligini, his-tuyg`ular kolliziyasi esa butun ko`lami bilan namoyon bo`lib, Saodatning qalbi ziddiyatlar maydoniga aylanib qolganligini ko`rsatib turibdi. Drama inson ko`nglida kechayotgan ruhiy kurashni zohiran namoyon etadi. Qahramonning o`z-o`zi bilan kurash olib borishi ichki kolliziyani yuzaga keltiradi. U ichki kurashdan qanday qilib chiqib ketish yo`llarini qidiradi. Shu ma`noda adabiyotshunos Hafiz Abdusamatovning “drama – inson qalbini ochib beruvchi asar”<sup>2</sup>, degan mulohazasi fikrimizning dalilidir. Zero, konflikt personajlarning ruhiy kolliziyasi bilan, ongi-shuuridagi to`qnashuvlar bilan ham chambarchas bog`lanadi.

Demak, insonning nozik ruhiy iztiroblari zamirida konfliktning to`fonlari, zilzilalari yashiringan bo`ladi. Inson psixologiyasining tahlilidan ziddiyatlar tabiati ayonlasha boradi. Dramaturg Saodatning eng og`ir psixologik kayfiyatga tushish vaziyatini har tomonlama asoslay olgan. Hayotdagi bir-biriga o`xshamagan voqealarni olib, bosh qahramon xarakteridagi nozik tomonlarni ko`rsatish orqali murakkab psixologik dramatismni yaratgan. Shu ma`noda asar tom ma`nodagi psixologik dramadir. Zero, bosh qahramon ruhiyatidagi kechinmalar drama sujeti asosini tashkil qiladi. Bosh qahramonning ruhiy kechinmalari Saodat – Obidjon,

---

\_\_\_\_\_

Saodat – Bahriniso, Saodat – Habiba munosabatlarida yuzaga chiqishi bilan birga, oydin tunda yolg`iz qolishi, telefon jiringlashi ham Saodatning ruhiyatidagi kechinmalarni junbushga keltiradi, sarosimaga soladi. Bosh qahramonning ruhiy kechinmalari Obidjon bilan uchrashib, uni uydan haydagan paytida eng baland nuqtaga chiqadi. Bu hol uni ruhan qiyin vaziyatga soladi. Avvalgidan ko`ra yanada keskinroq, hayajonliroq ruhiy holatni boshdan kechiradi. Natijada dramadagi tragik holat yuzaga chiqadi. Aynan shu o`rin dramaning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Saodatning o`zini o`ldirishga jazm qilishi – psixologik holatning eng cho`qqisi edi. Iztirobli ruhiy vaziyatlar psixologik holatlarning yuqori nuqtaga ko`tarilishiga asos bo`lib xizmat qiladi. Psixologik kayfiyat dramaning barcha elementlarida (nutq, dialog va remarkalarda) o`z aksini topadi.

Dramada konfliktning xarakterlararo va kechinmalar kolliziyasi ko`rinishlaridan unumli foydalanilgan. Bosh qahramon ruhiyatidagi his-tuyg`ular, o`y-mushohadalar ziddiyati, asosan, psixologik kolliziya shaklida beriladi. Hayotiy ziddiyatlar ijtimoiy hodisa bo`lganligi uchun ham u bevosita jamiyat muammolari bilan bog`liq. Har bir davrning o`z muammolari, og`riq nuqtalari shaxs va jamiyat psixologiyasidagi ehtiroslar, ziddiyatlar, kurashlar tabiatini belgilab beradi. Badiiy konflikt bevosita hayotdan olinganligi uchun ham hayotdagi o`zgarishlar, muammolar badiiy asar konfliktida o`z aksini topadi. Shuning uchun jamiyat hayotida g`oyat dolzarb bo`lib turgan muammoli narsa davr o`tishi bilan o`z qimmatini yo`qotishi mumkin. Demak, konflikt hayotiy-estetik kategoriyadir. Shu ma`noda u badiiy asarning eng muhim badiiy komponentidir.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy konflikt masalasiga doir ilmiy-nazariy fikrlar ko`plab bildirilgan. O`zbek adabiyotshunosligida ham bu haqda e`tiborga loyiq ishlar qilingan<sup>1</sup>. Badiiy konflikt ko`rinishlari to`g`risida turli qarashlar mavjud. Jumladan, rus adabiyotshunosi V.Kojinov hayotdagi ziddiyatlarni

---

<sup>1</sup> Имомов Б. Хаёт ва драматик конфликт. – Т., 1962. – 45 б.

<sup>2</sup> Краткая литературная энциклопедия. – Т.-М., 1976. – С. 716.

konflikt, adabiyotdagi ziddiyatlarni kolliziya deb atashni taklif etadi <sup>1</sup>.  
Adabiyotshunos A.Rahimov badiiy konflikt ko`rinishlarini uch tipga bo`linadi:

1. Tuyg`ular o`rtasidagi kurash tipi.
2. Xarakterlararo kurash tipi.
3. Qarama-qarshi kuchlar o`rtasidagi kurash tipi.

Badiiy konflikt ko`rinishlari ham bevosita davr muammolari va adabiy janrlar taraqqiyoti bilan bog`liq kechadi. Ziddiyat ko`rinishlaridan mohirona foydalanish ijodkorning iste`dodiga, mahoratiga bog`liq jarayon hisoblanadi.

Izzat Sulton sahna madaniyatida o`z so`zini aytgan betakror ijodkordir. Dramaturg asarlariga xos fazilat shundaki, u bugungi hayotiy masalalarni kechagi kun andozalariga zo`raki joylamaydi. Jamiyat bag`rida kurtak yozayotgan hodisalarni o`zgalardan avvalroq payqaydi. Uning samaralarini, ertangi kundagi yorug` belgilarini ko`ra biladi. Dramaturgning san`atkor sifatidagi vazifalaridan biri hayotda, jamiyatda keng tus olayotgan voqea-hodisalarga kishilarni ruhan tayyorlab borishdir; o`sha jarayonlar mohiyatini tushunishlariga ko`maklashishdir. Hodisalarga munosabat esa har bir shaxsning ongi-dunyoqarashi, ijtimoiy voqelik jarayonlari to`g`risidagi tasavvur va tushunchalari, hayotiy talablari asosida yuzaga keladi.

Muayyan jamiyatda ildiz otayotgan ilmdagi nopoklik, qalbaki yo`llar bilan ilmiy darajalarga erishish illati o`zbek dramaturgiyasida birinchilardan bo`lib Izzat Sultonning “Imon” dramasi qalamga olindi. Hayotdagi salbiy hodisani bir ziyoli oila taqdirida yuksak badiiy aks ettirish katta ijtimoiy mohiyat kasb etdi. Izzat Sultonning “Imon” dramasi badiiy konfliktning uch ko`rinishi ham mavjud bo`lib, dramaturg bu an`anani keyingi asarlarida yanada mukammallashtirgan. Bu “Oydin kecha asirligida” asarida bosh qahramon Saodatni “Imon” dramasi Azizaga muqoyasa qilganda ko`rinadi.

...Ozoda tabiat go`zalligiga mahliyo. U o`zining jo`shqin yoshlik o`y-xayollari bilan band. Risolat esa bugun uyga keladigan mehmonlarni kutish bilan ovora. Faqat Azizagina g`amgin, yuragiga qil ham sig`maydi. Asar voqealari

---

boshlanmasdanoq qandaydir tashqi harakat ro'y berib, endi u ichki harakatga aylangan. Bu qaysi jihati bilandir Azizaga aloqador. Shu sababli u g'amgin va sirli his-tuyg'ularga berilgan holatda ko'rinadi. Mahzunlik holati asta-sekin kuchaya boradi. Ozoda bu ma'yuslikning sababini surishtirganda Aziza javob berolmaydi, ko'ziga yosh oladi. Chunki, o'zining g'am-alami bilan Ozodaning shodligiga soya tashlagisi yo'q.

Xo'sh, Azizani ruhiy azobga solgan, qalbini larzaga keltirgan jumboq nima? Aziza – Yo'ldosh Komilovning kelini, Orifning rafiqasi. Kasbi – vrach. U o'z baxtini insonlarga madad berishda, yaxshilik qilishda deb bilgan va shunga amal qilib kelayotgan ajoyib ayol, vafodor yor. Turmush o'rtog'i Orif bir jinoyat ish qilganki, bunga u sira-sira chiday olmaydi. Shuning uchun ham ruhiy azobda... Biroq buni Aziza hech kimga bildirmaydi, sir tutadi. Orif – professor Yo'ldosh Komilovning o'g'li, fan nomzodi, “olim”. U mazkur unvonga o'z bilimi, iste'dodi bilan emas, balki qalloblik, o'g'rilik bilan erishgan. Bundan voqif bo'lgan Aziza Orifning jinoyatidan qayg'uradi; ayni vaqtda, uni to'g'ri yo'lga qaytarmoqchi bo'ladi. Ammo Orif xudbin, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan shaxs. Shuning uchun ham qilmishiga iqror bo'lgisi yo'q. Bu esa Azizani yanada qiyin vaziyatga soladi. Mana shular psixologik kolliziyaning hayotdagi real zamini. Aziza qalbidagi tug'yon tobora orta boradi. U avval Orifdan o'z xatosini anglashni, qalloblikdan yuz o'girishni so'rab yolvoradi. Iltijolari zoye ketadi; umidlari sarobga aylana boradi. Ammo erining to'g'ri yo'lga qaytishidan umidini uzmaydi.

Ana shu dramatik kolliziya jarayonida Aziza xarakterining yangi qirralari ochila boradi. Orif bilan Aziza suhbatidan so'ng dramaturg Ozoda va Siddiqjon, Oysha va Sobirov munosabatlariga o'tadi. Ammo, shunda ham Aziza chekayotgan ruhiy azoblar ko'z o'ngimizdan ketmaydi. Gazetada professor Yusupovning qo'lyozmasi haqida maqola chiqishi, buning ustiga-ustak Azizaning iltijolari Orifni ham ruhiy azobga soladi. U o'z sirlari fosh bo'lishidan qo'rqib, Aziza atrofida girdikapalak bo'la boshlaydi. Undan “podadan oldin chang chiqarmaslik”ni so'raydi. Bu sharmandalikdan qutulish, jinoyatini berkitish uchun u chora izlaydi.

Biroq Orif o`zini qanchalik o`nga-suvga urmasin, baribir ko`chirmachiligi fosh bo`ladi.

Orifni jinoyat ko`chasiga boshlagan Sanjarov. U Orifning ustozini; hasadgo`y, ko`ngli qora, mulkka hirs qo`ygan shaxs.

Orifning jinoyati fosh bo`lgach, muammo hal bo`lgandek, ikkinchi pardada voqeani davom ettirish ortiqchadek tuyuladi. Masalaga chuqurroq yondashilsa, ikkinchi pardada voqeaning davom ettirilishi faqat Orifning o`z xatosini bo`yniga olishini, tavbasiga tayanishini ko`rsatish uchungina emas, balki Azizaning erini xato yo`ldan qaytarishdagi sabr-toqatini, matonatini ko`rsatish uchun ham muhimdir. Mazkur voqealar asar konflikti rivojini susaytirmay, balki unga yangidan asoslar yaratadi. Asar qahramonlari xarakteridagi olijanob xususiyatlar, insoniy fazilatlar bo`rtgan holda ko`rinadi.

Agar birinchi pardada Aziza Orifdan o`z xatosini anglashni so`rasa, iltimos qilsa, endi u eridan bu yo`ldan qaytishini talab qiladi. O`z so`zida qat`iy turadi. Azizaning Orif taqdiri uchun kuyib-pishishi, jon kuydirishi chuqur asosga ega. Chunki bu Aziza uchun oila, muhabbat va hayot masalasidir. Bunda Aziza xarakteridagi takomilni ko`rmaslik mumkin emas. Ayol qalbidagi ichki tug`yon, ruhiy kechinma tashqi harakatga aylanadi. Haqiqatning yuziga tik qarash, qat`iylik kabi xususiyatlar Aziza xarakterida yuzaga chiqa boshlaydi. Orifning haq yo`lga qaytishini kutaverib Azizaning sabr kosasi to`lib-toshgan. Orifning qo`lyozmani yo`q qilish niyatida shaharga tushib, quruq qaytishi, o`z jinoyatini bo`yniga olmay yana qabihlik va muttahamlik yo`lini tutishi Azizaning unga bo`lgan ixlosini, muhabbatini chilparchin qiladi.

“**Aziza** (Orifga): ...Siz mening umidlarimni yer bilan yakson qildingiz, muhabbatimni toptab tashladingiz. Siz aybingizga iqror bo`lmadingiz, siz nomard ekansiz!..”<sup>1</sup> deydi. Orifning kirdikorlarini birma-bir ochib tashlaydi, uni haq yo`lga qaytishida jasorat ko`rsatadi. Shunday qilib, Yo`ldosh Komilovlar oilasi “bir

---

<sup>1</sup> Иззат Султон. Имон. – Т.: Ўздабийнашр, 1961. – Б. 142.



begona, bir yakkamoxov” – Orifni yengadilar. Bu faqat Orifning emas, Orifga o`xshagan shaxslarning ham yengilishidir.

Ko`rinadiki, Izzat Sulton ijodiy izlanishlarida ma`naviy-axloqiy masalalarga javob izlash rangin qirralari bilan o`z ifodasini topgan. “Imon” dramasidan tortib, “Oydin kecha asirligida” pyesalarigacha mazkur muammo turfa ma`no jilolari bilan aks ettiriladi. O`zbek ayollarining ijtimoiy faoliyatini, ma`naviy hayotini, tuyg`u-kechinmalari kamalagini, jamiyat hayotida tutgan o`rni va rolini, qalb holatlarini gavdalantirish dramaturgiyamizda alohida bir yo`nalish sifatida ko`zga tashlanadi.

Zamon va qahramon konsepsiyasi badiiy-estetik tafakkur mehvarini tashkil qiladi. Sahna madaniyati, jumladan, Izzat Sulton dramalari zamon va inson haqidagi g`oyaviy-badiiy muhobasalarni o`rganishda, yoritishda muhim rol o`ynaydi. Izzat Sulton pyesalarida insonni anglash va tushuntirishdagi o`ziga xosliklarni, shaxs va jamiyat psixologiyasini yoritish, bu – adib estetik qarashlarini, tasavvur va tushunchalari in`ikosi bo`lgan obrazlar tizimini yaxlit va bus-butun olib qarashdan, o`rganishdan kelib chiqadigan samaradir.

Demak, “Oydin kecha asirligida”, “Imon” pyesalaridagi insonni badiiy idrok va ifoda etish prinsiplari realistik asosi bilan ahamiyatlidir. Inson tirikligi paytida qoqilishi, bukilishi, xatolar qilishi mumkin. Va lekin, u yiqilmaydi, sinmaydi, najotsiz halokat chohiga qulamaydi. Inson o`nglanishga, hayotda o`z o`rnini tayin etishga majbur. Boisi, uning ko`nligiga yorug`lik, hayot nuri joylangan. Izzat Sulton o`z asarlarida inson ma`naviyatini hamisha va hamma zamonlarda bezab kelayotgan ana shu ijodiy kuchning salohiyatini ko`rsatishga intiladi.

## XULOSA

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek dramaturgiyasi ham o'zining rivojlanish tarixi mobaynida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hurriyatga erishgan xalqimiz hayotini, mustaqil mamlakat istiqbolini zamondoshlarimiz taqdiri bilan odamlarning qalb hayoti orqali aks ettirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Izzat Sultonning dramalarini tahlil qilar ekanmiz, quyidagicha xulosalar chiqardik:

Izzat Sultonning XX asr oxirlarida yaratilgan dramatik asarlarida shaxsning oilaga, jamiyatga munosabati orqali oilaviy baxt, ma'naviy go'zallik, axloqiy poklik singari qarashlari muayyan ma'no kasb etgan, shaxsiyati shakllangan odamlar (Bahriniso, Abdurahim ota, Hoshimjon, Saodat, Obidjon) ruhiyati aks ettirilgan.

Dramaturg dramalari qahramonlari ruhiy evrilishlar jarayonida yangi axloqiy munosabatlarning qaror topishida o'z shaxsiyatini, ma'naviy yetuk psixologiyasini namoyish etayotgan shaxslardir.

Hozirgi o'zbek dramaturgiyasi, jumladan, Izzat Sulton asarlarida odamlarga ko'ngil nurini, mehrini, ziyosini ulashayotgan insonning ma'naviy-intellektual hayotini, tuyg'u-kechinmalarini kashf etish tamoyili ustuvorlik qiladi. Izzat Sulton o'z dramalarida shaxs ruhiyatidagi o'zgarishlarni yoritish asnosida uning individual taqdiridagi, ongi-tafakkuridagi yangilanish alomatlarini aks ettiradi.

Izzat Sultonning XX asr oxiri – XXI asr boshlari, xususan, mustaqillik davridagi ijodiy izlanishlari umumdramaturgiyamiz tarixiy rivojlanishida kuzatilgan liro-psixologik tahlil badiiy-estetik tadqiqotchilik yo'nalishiga hamohangdir. “Yangi odamlar” pyesasida kuzatilganidek, bu borada shaxs va jamiyat masalasi tasviri yetakchilik qiladi. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarning shaxs psixologiyasiga olib kirgan o'zgarishlari va ana shu jarayonda shaxsning jamiyat hayotida tutgan o'rni, ahamiyatini ko'rsatish badiiy tadqiqotchilikda ustuvor yo'nalish kasb etdi. Jamiyat psixologiyasi bilan qahramon ruhiyatini yaxlit uyg'unlikda idrok va ifoda qilishda janr nuqtai-nazaridan

hamohanglik mavjud bo`lsa-da, “Yangi odamlar”, “Oydin kecha asirligida” asarlarida voqelikning odamlar psixologiyasiga ta`siri hamda shaxsning jamiyatga, shaxs va ijtimoiy muhit o`rtasidagi munosabatlar o`zgachaligi, o`zaro farqlanishi ushbu muammolarning badiiy tadqiqini, drama janri ko`rinishlarining rang-barangligini ta`minlaydi.

Izzat Sulton dramalarida hayot romantikasi realistik tasvir prinsiplarini boyituvchi xususiyati bilan ko`rinadi. Publitsistik nutqning ichki monolog, o`y-mushohadalar, e`tirof va iqror singari tasvir usullari bilan boyishi qahramonlar psixologiyasini yoritishda yetakchilik qiladi.

“Yangi odamlar” dramasi qahramonlari adibning yetakchi insonparvarlik g`oyalarini yangi ijtimoiy muhitda rivojlantirayotgan, ma`naviy-axloqiy madaniyatni boyitishga yuz tutgan qahramonlar sifatida gavdalanadilar (Azamat, Dilbar, Muzaffar ota).

Konfliktning botiniy – kolliziya shaklidan foydalanish adabiyotimizning barcha turlari va janrlarida – epos, romanlarda bo`lganidek, dramaturgiyada ham samarali kechmoqda. Drama janrida ham, boshqa adabiy janrlar qatori, qahramonlarning ichki dunyosini bor ziddiyatlari bilan yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ruhiy olamini kashf etish psixologik tadqiqotchilik madaniyatidan talab etilayotgan bosh maqsad bo`lib bormoqda.

Dramada tuyg`ular kolliziyasini ifodalash ancha murakkab masala hisoblanadi. Vaqt, o`rin, sharoit birligiga asoslangan bu turda qahramon ruhiyatida kechayotgan buhronlarni yoritish ancha mushkul. Qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyatli o`zgarishlar – o`y-xayollar dramasi berish asar dramatismini oshiradi. Dramaturg Izzat Sulton tuyg`u-kechinmalar kolliziyasidan foydalanar ekan: a) qahramonlar chorasiz qolib, tushib qolgan qiyin sharoitlari tabiatini zohir etishga; b) qahramonlari o`ylantirayotgan jumboqlarni, qiynayotgan muammolarni, ma`naviy dunyosida kechayotgan o`zgarishlarni yuzaga keltirishga alohida e`tibor beradi.

Dramaturg Izzat Sulton ijodida ma`naviy-axloqiy muammolar xilma-xil ko`rinishga ega bo`lib, avvalo, imon, vijdon, burch va mas`uliyat tushunchalari

orqali o'z ifodasini topadi. Vijdon pokdomonligi bilan imon butunligi, dramaturg talqiniga ko'ra, shaxs tabiatidagi insoniylikning, ruhiy kamolotning asosiy mezonlaridan biri deb qaraladi.

Zamon va qahramon konsepsiyasi badiiy-estetik tafakkur mehvarini tashkil qiladi. Sahna madaniyati, jumladan, Izzat Sulton dramalari zamon va inson haqidagi g'oyaviy-badiiy muhohasalarni o'rganishda, yoritishda muhim rol o'ynaydi. Izzat Sulton pyesalarida insonni anglash va tushuntirishdagi o'ziga xosliklarni, shaxs va jamiyat psixologiyasini yoritish, bu – adib estetik qarashlarini, tasavvur va tushunchalari in'ikosi bo'lgan obrazlar tizimini yaxlit va bus-butun olib qarashdan, o'rganishdan kelib chiqadigan samaradir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Ижтимоий-сиёсий адабиётлар

- 1.1. Каримов И.А. Адолатли жамият сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
- 1.2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
- 1.3. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

### II. Илмий-назарий ва бадий адабиётлар

- 2.1. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2000.
- 2.2. Адабиёт назарияси. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1979.
- 2.3. Айтматов Ч. Многонациональный роман. – М., 1985.
- 2.4. Собиров Т. Давр ва драма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
- 2.5. Гегел. Эстетика. Т.4. – М.: Искусство, 1973.
- 2.6. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983.
- 2.7. Иззат Султон. Имон. – Т.: Ўзадабийнашр, 1961.
- 2.8. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.
- 2.9. Имомов Б. Ҳаёт ва драматик конфликт. – Т., 1962.
- 2.10. Жалилов Б. Ўзбек драматургияси поетикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1984.
- 2.11. Краткая литературная энциклопедия. – Т.-М., 1976.
- 2.12. Омон Матжон. Гаплашадиган вақтлар. – Тошкент: Ғ. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
- 2.13. Османова З.Г. Художественная концепция личности в литературах Востока. – М., 1975.
- 2.14. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007.
- 2.15. Қўшжонов М. Сайланма. ИИИ том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1982.

- 2.16. Шокиров Ў. Иззат Султон – драматург. – Тошкент: Фан, 1981.
- 2.17. Шокиров Ў. Иззат Атахонович Султанов. – Тошкент: Фан, 1981.
- 2.18. Ғуломов Б. Сафдошлар ва издошлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
- 2.19. Хализев В. Драма как явление искусства. – М., 1978.
- 2.20. Ёқубов О. Оқ қушлар, оппоқ қушлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

### **III. Матбуот материаллари**

- 3.1. Иззат Султон. Тарих ва замонавийлик // Гулистон, 1981. – № 1.
- 3.2. Иззат Султон. Азиз остонада сўз // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990. 21 декабр.
- 3.3. Иззат Султон. Дам бу дамдир, дам бу дамдир, дам бу дам... // Соғлом авлод, 1996. – № 1.
- 3.4. Иззат Султон. Тонглар – ёруғлик энагаси // Гулистон, 1999. – № 5.
- 3.5. Иззат Султон. Ойдин кеча асирлигида // Гулистон, 2000. – № 2.
- 3.6. Иззат Султон. Янги одамлар // Ёшлик, 2003. – № 2-3.

### **IV. Интернет сайтлари**

- 4.1. [http: // ziyo.net.uz](http://ziyo.net.uz).
- 4.2. [http: // kutubxona.uz](http://kutubxona.uz).
- 4.3. [http: // e-adabiyot.uz](http://e-adabiyot.uz).